Mazkur ilmlar Qur’oni Karimga bevosita taalluqli bo‘lib, bularni bilish har bir mufasssir olim uchun zarur hisoblangan. Demak, “Javohir at-tafsir”ni Qur’oni Karim ilmlari bo‘yicha nazariy manba deya olamiz. Umuman olganda, Temuriylar davri Markaziy Osiyo va Xuroson hududlarida ilm-fan va madaniyatning yuksalishi bilan ajralib turadigan tarixiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda Samarqand va Hirot shaharlari nafaqat siyosiy va iqtisodiy markaz, balki islom ilmlarining yirik ilmiy markazlari sifatida ham shakllangan.

Aytish mumkinki, “Javohir at-tafsir” asari Temuriylar davri Qur’onshunoslik an’analarini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Unda Qur’on ilmlariga doir nazariy qarashlar, tafsir usullari va islom ilmlari tizimi haqida qimmatli ma’lumotlar jamlangan. Shu bois mazkur asarni qo‘lyozma manbalar asosida qiyosiy tahlil qilish, uni nashrga tayyorlash va mazmun-mantiqiy tahlilini amalga oshirish Temuriylar davri islom ilmlari tarixi va Qur’onshunoslik an’analarini yanada chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

¹²² Rasm al-xat – Qur’oni Karimning rasmiy, qabul qilingan yozuvi. Ya’ni Mushafi sharifning xalifa Usmon davrida jamlangan va musulmonlar ommasi tomonidan qabul qilingan nusxalariga muvofiq ekanligini o‘rganuvchi ilm.

¹²³ Ta’vil – lug‘aviy ma’nosi qaytmoq bo‘lib, Qur’oni Karimda tafsir, ta’yin, ofiyat, oqibat, tushning ta’biri, amalga oshirilgan ishning sababi kabilar xususida so‘z borganda zikr qilingan.

Rezume

Temuriylar davri Movarounnahr va Xuroson hududlarida ilm-fan va madaniyatning yuksalishi bilan ajralib turadi. Ushbu davrda islom ilmlari, xususan Qur'on tafsiri sohasida muhim asarlar yaratilgan. Mazkur maqolada Husayn Voiz Koshifiyning "Javohir at-tafsir li tuhfat al-Amir" asari ilmiy tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, Alisher Navoiy faoliyati bilan bog'liqligi, qo'lyozma nusxalari, tarkibiy tuzilishi va manbalari o'rganiladi. Shuningdek, Koshifiyning tafsir uslubi, uning klassik islom tafsir an'analari bilan bog'liqligi hamda Temuriylar davri ilmiy muhitidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari mazkur asar Temuriylar davri Qur'on ilmlari taraqqiyotini o'rganishda muhim manba ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, tafsir, Temuriylar davri, Qur'on ilmlari, Hirot ilmiy muhiti, Husayn Voiz Koshifiy.*

Тимуридский период представляет собой один из важнейших этапов развития интеллектуальной и культурной жизни в Центральной Азии и Хорасане. В эту эпоху было создано множество значительных работ в исламских науках, включая важный вклад в толкование Корана (тафсир). В данной статье рассматривается тафсир «Джавахир аль-тафсир ли тухфат аль-амир», написанный Хусейном Ваизом Кашифи. В исследовании анализируется исторический контекст работы, её связь с научным покровительством Алишера Навои, рукописная традиция и структурная композиция текста. Особое внимание уделяется использованным в работе экзегетическим методам и классическим источникам, применяемым автором. Исследование показывает, что тафсир Кашифи представляет собой важный пример коранической науки в интеллектуальной среде Тимуридов и способствует развитию коранических наук в персидском мире.

Ключевые слова: *Алишера Наваи, гератская научная среда, корановедение, тафсир, Тимуридов, Хусейна Ваиза Кашифи.*

The Timurid period represents one of the most important stages in the development of intellectual and cultural life in Central Asia and Khorasan. During this era, many significant works in Islamic sciences were produced, including important contributions to Qur'ānic exegesis (tafsir). This article examines the tafsir work *Jawahir al-tafsir li tuhfat al-amir* written by Husayn Va'iz Kashifi. The study analyzes the historical background of the work, its relationship with the scholarly patronage of Alisher Navoi, the manuscript tradition, and the structural composition of the text. Particular attention is given to the exegetical methods used in the work and the classical sources employed by the author. The research demonstrates that Kashifi's tafsir represents an important example of Quranic scholarship in the Timurid intellectual environment and contributes to the development of Quranic sciences in the Persianate world.

Keywords: *Alisher Navoi, Herat scholarly environment, Husayn Va'iz Kashifi, Qur'anic studies, tafsir, Timurid period.*

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Абдуллаева Ф.И. Персидская кораническая экзегетика. – Санкт-Петербург, 2000. – 191 с.
2. Абдуллоҳ ибн Муҳаммад Ориф. Табақот ал-муфасссирин ал-киром ва муаллафотиҳим. – Оренбург: Дин ва шариат, 1909. – 15 б.
3. Али Акбар Қазвиний. Луғатномаи Деххудо. Ж. XI. – Техрон: Муассасаи интишороти в чопи донешгоҳи Техрон, 1334/1994. – 1561 с.
4. Болтабоев Ҳ. Ислом тасаввуфи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи. 2005. – 400 б.
5. Забиҳулло Сафо. Тарихи адабиёти Эрон. Ж. IV. – Техрон: Ромин, 1371/1993. – 608 с.
6. Каталог персидских рукописей. Института рукописей им. К.С.Келидзе. Академии Наук Грузинской ССР. – Тбилиси: Мецниереба, 1977. – 74 с.
7. Манноъ ал-Қаттон. Мабаҳис фи улум ал-Қуръан. – Байрут: Муассасатун ар-рисола, 1980. – 400 б.
8. Мунзавий А. Феҳриствораи китобҳои форси. Анжумани осори мафоҳири фарҳанги. Ж. I-III. – Техрон, 1374-1376/1996-1998. – 2570 с.
9. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик // Навоий А. Мажолис ан-нафоис. – Тошкент: Фан, 1997. – Т.13. – 284 б.
10. Резван Е.А. Коран и его мир. – Санкт-Петербург: Петербургское Востоковедение, 2001. – 608 с.
11. Стори Ч.А. Персидская литература. Биобиблиографический обзор Пер.с англ., переработал и дополнил Брегель Ю.Э. Ч. 1. – М.: Наука, 1972.– 693с.; Ч. 2. – С. 697-1314; Ч. 3. – С. 1321-1888.
12. Тагирджанов А.Т. Описание таджикских и персидских рукописей Восточного отдела библиотеки ЛГУ. История, биография, география. – Л.: ЛГУ, 1962. – 513 с.
13. Шамсуддин Сомий. Қомус ал-аълум. Ж. III. – Истамбул: Меҳрон матбааси, 1891. – Б. 1604-2400.
14. Хондамир. Ҳабиб ас-сияр. – Техрон, 1353/1975 – 545 б.
15. Хондамир. Макорим ал-ахлоқ. ЎЗР ФА ШИ, қўлёзма № 5340. – 80 варақ.
16. Хондамир. Хулосат ал-ахбор. ЎЗР ФА ШИ, қўлёзма № 2209. – 499 варақ.
17. Ўринбоев А. Ҳасанов М. Навоий замондошлари мактубларида – Тошкент: Фан, 1990, – 54 б.
18. Қуръони Карим / Ўзбекча академик изоҳли таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Усмон, – Тошкент: Фан, 2004. – 366 б.
19. Ҳусайн Воиз Кошифий. Жавахир ат-тафсир ли тухфат ал-Амир. ЎЗР ФА ШИ, қўлёзма № 3606. – 520 варақ.

20. Хусайн Воиз Кошифий. Мавоҳиби Алийя ё Тафсири Хусайний / Нашрга тайёрловчи, кириш сўз ва изоҳлар муаллифи: Сайид Муҳаммад Ризо Жалолий. – Техрон: Иқбол, 1317/1939. – 522 б.

21. Bankipur Catalogue of the Arabic and Persian manuscripts in the Oriental Public Library at Bankipure, Prepared ... under the supervision of Sir E.D.Ross, J.A.Chipmin and others. – Calcutta, 1928. Vol. XIV. – P.1124-1125, 1132.

22. Blochet E. Catalogue des manuscrits persans de la Bibliothèque Nationale. – Paris. 1905. Vol. I. – 412 s.

23. Ethe H. Catalogue of the Persian Manuscripts in library of the India Office, vol. I, – Oxford, 1903. – 1632 p.

24. Eva Maria Subtelny. Some Documents from Timurids Herat // Asiatische Studien / Étude Asiatiques. LX, 4, 2006, – P. 102-127.

25. Pertsch W. Die handschriften – verzeichnisse der Königl. Bibliothek zu, Berlin. IV. – Berlin. 1888. – 1283 s.

26. Rieu Ch. Catalogue of the Persian Manuscripts in British Museum. – London. 1879. Vol. I. – 432 p.

ХАЙРИЯ БУРИЕВА**ТОШКЕНТ ШАҲРИ ИЖТИМОИЙ ОБЪЕКТЛАРИНИНГ
ТОПОНИМИК ХУСУСИЯТЛАРИ
(1991–2007 ЙИЛЛАР)**

Давлат ва жамият тарихини ўрганиш уларнинг истиқболдаги тараққиёт режаларини белгилашда самарали саналади. Ўзбекистоннинг энг янги даври тарихини ёритишда тарих соҳасининг турли йўналишларида амалга оширилаётган тадқиқотларнинг натижаларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, тарихий топонимика бўйича олиб бориладиган тадқиқотларда жой номларининг этимологияси ўрганилиши билан бир қаторда, топонимик объектларнинг тизими ва уларнинг инсон ҳаётидаги тутган ўрни билан боғлиқ маълумотлар қўлга киритилади. Ушбу ахборот, ўз навбатида, муайян ҳўжалик тармоқларининг ривожланиши, ҳолати, замонавий даврдаги трансформациясини аниқлаб, мавжуд камчиликларни бартараф қилишда алоҳида қимматли манбалардан ҳисобланади. Топонимик объектларни маълум ҳудудлар кесимида ҳамда соҳалар бўйича ўрганиш орқали улар ҳақида тизимли билимлар ҳосил бўлади. Масалан, шаҳар ҳудудида жойлашган объектларнинг жой номлари орқали ундаги табиий объектлар, туман, маҳалла, кўчалар, халқ ҳўжалигига оид ташкилотлар, аҳолининг этник таркиби, турли муассасалари ҳақида тасаввур шаклланади. Ушбу гуруҳларга мансуб микротопонимларни тадқиқ қилиш натижасида эса, муайян соҳа ривожини тарихий-топонимик манбалар асосида ёритиш имкони пайдо бўлади. Бундай билимлар ўрганилаётган ҳудуднинг табиати, аҳолиси, маъмурий тузилиши, сиёсий, иқтисодий, маданий, маънавий ривожланиши тарихини яратишга хизмат қилади.

Қуйидаги мақолада Тошкент шаҳрида мустақиллик даврининг дастлабки ўн беш йиллик тараққиёти давомида мавжуд ижтимоий соҳада, аниқроғи, таълим-тарбия ва тиббиётда фаолият юритган муассасаларнинг номланиши хусусиятлари ва уларнинг фаолияти ҳақидаги маълумотларни архив ҳужжатлари асосида ўрганиб тақдим этиш мақсад қилинган.

Мустақиллик даврининг дастлабки йилларида бозор муносабатларига ўтиш шароитида Ўзбекистон Республикасида амалга оширилган ислохотлар мамлакатнинг иқтисодий ҳаёти билан бир қаторда унинг ижтимоий соҳаларидаги янги даврнинг бошланишига сабаб бўлди. Шу жумладан, соғлиқни сақлаш ҳамда таълим-тарбия билан боғлиқ муассаса ва ташкилотларнинг тизими, тузилиши, фаолияти ва уларга қўйиладиган талаблар тубдан ўзгартирилиб, суверен давлат, мустақил тараққиёт қонун-қоидалари ҳамда миллий кадриятларга ҳурмат асосида қайтадан ташкил этилди. Ушбу жараёнлар қайд этилган соҳаларга тегишли муассасаларнинг номланишига бевосита таъсир кўрсатиб, уларда маълум

даражада акс этиб борди. Аммо қайд этиш жоизки, иқтисодий объектлардан фарқли ўлароқ, ижтимоий ва маданий объектларнинг номланишида ташкилотнинг мулкчилик шакли кам учрайди ва асосан хусусий ташкилотларда бундай ҳолат кузатилади. Аксарият ижтимоий объектларнинг номларида эса муассаса тури, фаолият йўналиши ҳамда ҳудудий мансублиги, тартиб рақамлари акс этгани кузатилади.

Таълим-тарбия тармоғида 1997 йили қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги қонун муассасаларнинг ишлаш услубини аниқ белгилаб берган. Унга кўра таълим-тарбия жараёнининг узлуксизлики асосий таълимийлардан ҳисобланиб, мактабгача таълим ташкилотлари, ўрта таълим мактаби, касб-ҳунар коллеж ва лицейлари, олий ўқув юр்தларининг бакалавр ҳамда магистратура босқичларидан иборат бўлган. Шунингдек, илмий-тадқиқот изланишларни олиб боровчи олий маълумотли мутахассислар учун докторантура, ординатура бўлимлари ташкил қилинган. Тошкент шаҳрининг пойтахт мақомини эгаллаши ҳамда аҳолиси сони анча юқори бўлгани сабабли, бу ерда кўплаб таълим-тарбия муассасалари фаолият олиб борган.

Тадқиқ этилаётган даврга тегишли маъмурий ҳужжатларда *мактабгача тарбия муассасалари* – болалар боғчалари ва яслилар тўғрисида маълумотлар асосан ушбу муассасаларнинг ҳисоботлари, шунингдек, уларнинг умумий сони бўйича мутасадди ташкилотларнинг ҳисоботларида учраб, боғчаларнинг номланиши аксарият ҳоларда рақамларда ифодалангани кузатилади.

Умуман олганда, 1995 йилги маълумотларга кўра, Тошкент шаҳрида жами 112606 та ўринга мўлжалланган 654 та мактабгача тарбия муассасалари фаолият юритиб, улардан 554 таси ясли-боғча, 80 таси болалар боғчаси, 17 таси ясли ва 3 таси мактаб-боғча бўлган. Ушбу боғчаларнинг 543 таси беш кунли, қолган 111 таси олти кунлик иш тартибига кўра ишлаган¹²⁴. Мулкчилик турига кўра:

- давлат мулки ҳисобланган боғчалар сони 311 та;
- акциядорлик жамиятлари мулкига кирган боғчалар 273 та;
- ижарадаги корхонага тегишли бўлган боғчалар сони 240 тани ташкил қилган.

Шаҳар боғчаларининг 459 таси Халқ таълими Вазирлиги, 195 таси бошқа турли Вазирликлар тасарруфида бўлгани манбалардан маълум¹²⁵.

Республика ҳукумати мустақилликнинг дастлабки йилларидан таълим-тарбия муассасалари ҳолатига алоҳида эътибор қаратиб, уларнинг бинолари ҳамда жиҳозланиши замон талабларига мос бўлиши зарурлигини таъкидлаган. Бироқ 1970 йиллар охири 1980 йилларда халқ хўжалигида юз берган турғунлик даври таълим-тарбия муассасаларининг умумий аҳволига ҳам таъсир этгани намоён бўлиб, уларнинг катта қисми

¹²⁴ Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1508-йиғмажилд, 1-2 varaқлар.

¹²⁵ Ўша жойда, 8-9-varaқлар.

санитария, ҳавфсизлик ва бошқа қатор талабаларга мос келмай қолган эди. 1990 йилларда шаҳар ҳокимияти бундай муассасаларни бошқа биноларга кўчириш ёки умуман фаолиятини тўхтатиш тўғрисида тегишли фармойишлар берган.

Мазкур ташкилотларнинг катта қисми, айниқса мактабгача тарбия муассасалари ва ўрта таълим мактаблари бинолари таъмирга муҳтож ёки умуман яроқсиз ҳолатга келгани архив ҳужжатларида қайд этилади. Хусусан, 1994 йилда Санэпидстанциянинг 116-7-сон қарорига мувофиқ Миробод туманида жойлашган 6-сон болалар боғчаси (Тошкент нон маҳсулотлари комбинатига тегишли) тегишли талабаларга жавоб бермагани сабабли, фаолияти тўхтатилган, бино Қўйлик даҳасидаги маҳалла гузарига берилган; 1995 йилда Юнусобод туманидаги аварий ҳолатига келган 205-сон болалар боғчаси Тошкент шаҳар ҳокимининг 641-фармойишига кўра, Асбобсозлик корхонасига қарашли 117-сон болалар боғчасига кўчирилган ҳамда Юнусобод тумани ҳокимиятининг 182-сон буйруғига кўра, 117-болалар боғчаси “бундан буён Юнусобод тумани халқ таълими бўлимига қарашли 205-болалар боғчаси деб” юритилган; 1995 йилда Ҳамза тумани ҳокими қарорига кўра, Сағбон, Чигатой ва Чувалачи кўчаларида жойлашган 64-, 15-, 179-сон боғчаларининг биноси шаҳарни реконструкция қилиш ишлари режасига кўра, кўчалар кенгайтирилгани боис, бузиб ташланган; 27-сон боғча эса санитария талабларига мос келмаганли сабабли, фаолияти тўхтатилган; 1996 йилда “Фотон” ишлаб чиқариш уюшмасига тегишли бўлган 174-сон боғча 69-сон боғча билан бирлаштирилган, 174-сон боғча биноси Чилонзор ҳокимиятига қайтариб берилган; 1996 йилда Шайхонтоҳур ҳокимияти қарорига кўра, 23-сон болалар боғчаси жойлашган бино авария ҳолатига келиб қолгани туфайли ўз фаолиятини тўхтатган; Ўқчи кўчасидаги 25-сон боғча болалар сони камайганли сабабли, ўз фаолиятини тўхтатган ва ўрнида Халқ таълими Вазирлиги ҳамда туман ҳокимияти буйруқларига асосан 1-сон иқтисодий йўналтирилган мактаб-интернат ташкил этилган¹²⁶.

Мустақиллик йилларида таълим-тарбия муассасалари жойлашган бинолар махсус режага асосан буткул таъмирдан чиқарилиши, шунингдек, янги ушбу турдаги муассасалар учун янги бинолар қурилиши ишлари босқичма-босқич йўлга қўйилган. Бу ҳақида қатор ҳужжаларда ҳукумат қарорларига кўра янги қурилган боғча бинолари, ташкил этилган боғчалар тўғрисида маълумотлар мавжуд. Масалан, 1995 йилда Акмал-Икромов туманида янги 140 ўринли, Миробод туманида 320 ўринли болалар боғчалари фойдаланиш учун топширилган¹²⁷.

Болалар боғчаларининг номлари аксарият ҳолларда рақамлар шаклида учраса-да, айрим боғчалар ўзларига хос тарзда ҳам номланган ва мазкур ном одатда боғчанинг тартиб рақамидан кейин ёзилган. Боғча-

¹²⁶ Ўша жойда, 54, 58, 59, 63, 64-варақлар.

¹²⁷ Ўша жойда, 64-варақ.

ларнинг ўзига хос тарздаги номлари кўпроқ табиат (“Ғунча”, “Солнышко”), эртақ қаҳрамонлари (“Буратино”, “Гулливер”), болалик даврига хос бошқа жиҳатлар (“Соғлом фарзанд”, “Кувонч”) билан боғлиқ бўлган. Мактабгача бўлган тарбия муассасаларининг ҳисоботларида мавжуд ҳужжатларда боғчанинг қайси ташкилотга тегишлилиги ёки тури, шунингдек, мулкчилик шакли тўғрисида маълумотлар келтирилган. Масалан: “Д/с 19 А.О. “Кукча” (государств.)” – “Кўкча” акциядорлик жамиятининг “19-сон болалар боғчаси” (давлатники); “Ясли-боғча 110 А.Ж. “Малика” (акц.жамиятиники)”.

Таълим-тарбиянинг навбатдаги босқичига тегишли бўлган муассасалар – *умумтаълим мактаблари* тизимида 1990 йилларнинг бошларида аввалги йиллардаги каби, тўлиқсиз ўрта (9 йиллик) ва тўлиқ ўрта (11 йиллик) мактаблари, шунингдек, соғлиги заиф болалар учун мўлжалланган махсус мактаблар, мактаб-интернатлар, асосан ишловчи ёшлар учун мўлжалланган кечки мактаблар фаолият юритган. Уларнинг номланиши ҳам одатдагидек тартиб рақамлари билан ҳамда таниқли шахсларнинг исмига атаб қўйилган. Масалан, “А.Қодирий номли 198-ўрта мактаб”, “А.Чехов номли 42-ўрта таълим мактаби”. Манбаларда қайд этилишича, 1995 йили Тошкент шаҳрида тўлиқ ўрта мактаблар – 279 та, тўлиқсиз мактаблар – 43 та, жами – 322 та ўмумтаълим мактаби, 17 та кечки мактаб; 1996 йили эса, тўлиқ ўрта мактаблар – 263 та, тўлиқсиз мактаблар – 58 та, жами – 321 та ўрта таълим мактаби; 16 та кечки мактаб бўлган¹²⁸. Кейинги йилларда тўлиқ ўрта мактаблари сони (11 йиллик) камайиб борган ва мазкур ҳолат ёшларни турли касбларга йўналтириш борасида давлат томонидан амалга оширилаётган сиёсат билан боғлиқ эди. Айтиш мумкин, янги турдаги ўмумтаълим мактаблари ёки 9 йиллик мактаблар, сони ортиб борган. Жумладан, 2000 йилда шаҳарда:

- 359 та мактаб;
- 15 та мактаб-интернат;
- 11 та кечки таълим мактаби фаолият юритгани манбалардан маълум¹²⁹. Мазкур ўмумтаълим мактабларнинг 141 тасида муайян фанларни чуқурлаштириб ўргатишга йўналтирилган бўлса, 30 таси гимназия мактаби ва 33 та лицей мактаби ҳисобланган.

Мустақиллик даврининг 2000 йилларида ўмумтаълим мактабларининг номларида таълим муассасасининг тартиб рақами, тури, ихтисослиги акс этган (4-сон ўрта мактаб, 244-сон ўрта мактаб, 166-сон гимназия мактаби, 284-сон лицей мактаби, 3-сон тўлиқсиз ўрта таълим мактаб-интернат, 107-сон ихтисослаштирилган гимназия мактаби, 17-сон гимназия мактаби); таъкидлаш жоизки, шахс исмлари билан мактабларни аташ тенденцияси бу йилларда пасайиб борган ва бундай номлар рўйхатларда кам ҳолларда учрайди (Глиэр номли мактаб-интернат).

¹²⁸ Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1511-йиғмажилд, 1-2-варақлар; 1510-йиғмажилд, 1-82 варақлар.

¹²⁹ Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5667-йиғмажилд, 5-варақ; 5669-йиғмажилд, 15-варақ.

1997 йилдан кейинги даврда, яъни Таълим дастури ва Кадрлар тайёрлаш тўғрисидаги давлат дастури (1997 й.) қабул қилинши муносабати билан, ўрта таълим тизимида мактаб битирувчиларини турли касб-хунарларга тайёрловчи, табақалаштирилган тизимли ва маълум соҳаларга йўналтирувчи *коллеж ва академик лицейларни* ташкил қилиш ишлари кенг йўлга қўйилган. Уларга умумтаълим мактабини тугатган, яъни 9-синфни тамомлаган, ўқувчилар қабул қилиниб, таълим муддати бу ерда уч йил деб белгиланган. Академик лицейлар, асосан, олий ўқув юртлари қошида ташкил қилиниб, умумий фанлардан ташқари ўқувчиларга муайян фанлар бўйича чуқур, мукаммал, касбга йўналтирилган билимлар бериши билан фарқланган. Касб-хунар коллежларида фанлар бўйича билим бериш билан бирга танланган касб-хунар бўйича ёки бир неча касбларни эгалаш учун ихтисослик бўйича сабоқ берилиб, ўқувчилар муайян касбни эгаллашлари жараёни амалга оширилган. 1995/96 ўқув йилига оид архив ҳужжатларида Тошкентда мавжуд 28 та лицей, лицей-интернат, билим юрти, мактаб-интернат, 42 та техникум, коллеж, жами 70 та ўрта махсус билим юрти номлари қайд этилган¹³⁰. Коллеж ҳамда академик лицейларнинг номлари таълим муассасасининг касбий йўналиши, шаҳарнинг маълум туманида жойлашганлиги билан боғлиқ ҳолда, шунингдек, маълум ташкилот қошида ташкил этилганлигига кўра аталган (Солиқ коллежи, Шарқшунослик институти қошидаги академик лицей, Сергели политехника касб-хунар коллежи), баъзи ҳоларда ўқув муассасаси номига таниқли шахс исмлари берилган (С.Ҳ. Сирожиддинов номли лицей-интернат, А.Навоий номли Нафис санъат лицейи).

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 24 февралдаги “Академик лицейлар ва касб-хунар коллежларини ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини бошқариш тўғрисида”ги қарорига биноан, шаҳарда академик лицейлар ҳамда коллежлар кўпайган. Бироқ ушбу тадбирлар тадрижий равишда амалга оширилгани боис, ўрта махсус таълим муассасалари таркибида 2000 йилларнинг бошларида айрим техникум ва билим юрти шаклидаги таълим даргоҳлари учраб турган. (“Ташкилотехникум”, “Тошкент технологиялар техникуми”, “Медучилище клиники ТашМИ”). 2008 йилда Тошкентда 116 та касб-хунар коллежи ва академик лицей фаолият юритгани манбалардан маълум¹³¹.

Ўрта таълим мактаблари ва ўрта махсус таълим даргоҳларидан ташқари *махсус мактаблар, спорт мактаблари*, шунингдек, ўқувчиларни ўқишдан ташқари бўш вақтларини самарали ўтказиш мақсадида турли мактабдан ташқари *таълим-тарбия муассасалари* фаолияти ташкиллаштирилган. Бу ҳақида архив ҳужжатларида учрайдиган таълим тизими бўйича ҳисоботларда маълумотлар учрайди. Жумладан, 2000 йилда Тошкент шаҳрида жами 24 та спорт мактаби ва 37 та мактабдан ташқа-

¹³⁰ Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1509, 1510-йиғмажилдлар.

¹³¹ Тошкент шаҳар ЎМКХТ Бошқармаси статистик маълумотлари (2008/2009 ўқув йили бўйича).

ри таълим муассасаси бўлиб, улардан 13 таси болалар ижодиёт маркази, 14 таси мактабдан ташқари таълимнинг бошқа турлари муассасалари, 8 таси техника ижодиёт маркази, 1 таси ёш табиатшунослар станцияси, 1 таси мактаб ўқувчилари саройи бўлгани манбаларда қайд этилган¹³². Ушбу муассасаларнинг номлари уларнинг фаолият йўналиши, ҳудудий жойлашуви ёки бирор ҳудуд, муассасага тегишлилиги, тартиб рақамлари ва айрим ҳолларда ўзига хос хусусиятлар билан боғлиқ тарзда аталган (Республика мусиқачилар мактаб-интернати, “ДЮСШ 3” – детско-юношеская спортивная школа – 3-сон болалар ва ўсмирлар спорт мактаби; 91-сон мактаб қошидаги сув ҳавзаси, Юнусобод тумани болалар ижодиёт маркази, Миробод тумани спорт клуби, ДЮС клуб “Лочин” – “Лочин” болалар ва ўсмирлар спорт клуби, “Қалдирғоч” сув ҳавзаси).

Мустақиллик йилларида *олий ўқув юртлари* тизимидаги ўзгаришлар уларнинг топонимик таркибида ўз аксини топган. Жумладан, архив манбалари маълумотларига кўра, Тошкентда 1995 йилда 20 та ОТМ фаолият юритган, 2000 йилда эса, уларнинг сони 29 тага етган¹³³. Пойтахтда жойлашган олий ўқув масканларининг аксарияти республикада еткази олий таълим муассасалари ҳисобланган. Мазкур давргача таълим муддати 5 йил (кундузги ва кечки бўлимларда), 6 йил (сиртқи бўлимда) белгиланган бўлиб (тиббий йўналишларда таълим 6, 7 йил давом этган), олий таълимдан кейинги босқичда 3 йиллик аспирантура, ординатура шакллари бўлган. 2003 йилдан бошлаб олий ўқув юртларида таълим 2 босқичли бўлиб, камида 4 йиллик бакалаврият ва 2 йиллик магистратурада иборат, деб белгиланган. Шунингдек, олий таълимдан кейинги босқичда илмий фаолият билан шуғулланувчи тадқиқотчилар учун 3 йиллик докторантура, 4 йиллик мустақил тадқиқотчи курслари ташкил этилган. Кадрлар малакасини мунтазам тарзда ошириб бориш мақсадида малака ошириш курслари фаолият юритган бўлиб, уларда таълим муддати турлича (бир ойдан олти ойгача даврлар) белгиланган. ОТМлар тегишли вазирликлар, агентлик, компания, концерн, қўмита ва бошқа давлат муассаса ҳамда ташкилотлар тасарруфида фаолият юритган (масалан, Ўзбекистон Миллий университети Ўз Р Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасарруфида, Тошкент тиббиёт академияси Ўз Р Соғлиқни сақлаш вазирлиги тасарруфида, Тошкент маданият институти Ўз Р Маданият ва спорт ишлари вазирлиги тасарруфида бўлган). Шунингдек, Тошкент шаҳрида жаҳоннинг бир нечта университетларининг филиаллари ташкил этилган.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида Тошкент шаҳар ҳудудида фаолият юритган олий ўқув муассасаларининг номларини маъносига кўра таҳлили ушбу топонимлар асосан таълим даргоҳининг ихтисослиги, ҳудудий мансублиги, соҳаси билан боғлиқ бўлганини аниқлаш мум-

¹³² Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5651-йиғмажилд, 1-3-варақлар.

¹³³ Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1514-йиғмажилд, 1-25-варақлар; 5670-йиғмажилд, 1-75-варақлар; маълумотлар манбаларда келтирилган ОТМ номлари ҳисобига кўра берилди.

кин ва уларнинг аксарияти манбаларда аббревиатура ёки қисқартирилган сўзлар шаклида ёзилган, айрим вақтларда улар таркибида антропотопонимлар ҳам учрайди (ТИҚХМИИ, ТАЙИ, ЎзДЖТИ, Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ, К.Бехзод номидаги РДМИ, Низомий номли ТДПУ, Тошкент Молия институти, 2-Тошкент давлат медицина институти, кейинчалик у Тошкент тиббиёт академияси, Тошкент шаҳридаги Сингапур менежментни ривожлантириш институти, Г.В.Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт академияси).

Олий малакали илмий ва илмий-педагогик кадрларни тайёрлаш ҳамда аттестациядан ўтказиш тизимини такомиллаштириш, олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларни аттестациядан ўтказишга раҳбарлик қилиш ҳамда илмий даража ва унвонларга қўйиладиган талабларнинг ягоналиги ва бажарилишини таъминлаш, ихтисослашган кенгашлар ва диссертация ишлари сифатини, уларнинг илмий ҳамда амалий қийматини назорат қилиб бориш вазифаларини амалга ошириш мақсадида 1992 йил Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Олий аттестация комиссияси (ОАК) ташкил этилган. Мазкур муассаса Тошкент шаҳрида жойлашган.

Ижтимоий соҳанинг муҳим тармоғи ҳисобланган **тиббиёт** соҳасида Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёт даврининг дастлабки йилларидан бозор иқтисодиёти шароитларига ўтиши жараёнлари амалга оширилиб, соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиниши бошланган. Шаҳарда мавжуд *касалхона*, *поликлиника* ва бошқа турдаги тиббий-даволаш муассасалари фаолияти, бошқаруви ва мулкчилик шакллари ўзгартирилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 10 ноябрдаги “Соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш Давлат дастури ҳақида”ги ПФ-2107-сон Қарори ва 2007 йил 19 сентябрдаги “Соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилишни янада чуқурлаштириш ва уни ривожлантириш Давлат дастурини амалга оширишнинг асосий йўналишлари тўғрисида”ги ПФ-3923-сон фармонида мамлакат аҳолисига тиббий ёрдам кўрсатиш сифатини ошириш тадбирлари белгилаб берилган. Улар асосида соғлиқни сақлаш тизимининг бирламчи бўғинини мустаҳкамлаш ва умумий врачлик амалиётини ривожлантириш тадбирлари амалга оширилган. Шунингдек, тизимда мавжуд бўлган болалар, катталар поликлиникалари ва аёллар маслаҳатхоналари ўрнига ягона оилавий поликлиникалар ташкил этилган. Айни вақтда шаҳарда 15 та даволаш-профилактика муассасаси босқичма-босқич ўз-ўзини молиялаштиришга ўтказилган¹³⁴.

Тиббий муассасаларга оид статистик маълумотлар Тошкент шаҳар Марказий давлат архиви ҳужжатларида қайд этилган бўлиб, уларда ташкилотлар сони ҳамда айримларининг номлари кўрсатилган. Хусусан, 2000 йилда Тошкентда 165 та тиббий муассаса, шу жумладан 65 та

¹³⁴ Тошкент: Энциклопедия/ Бош таҳрир хайъати: А.Ақромов, Б.Ш.Алимов, М.Н.Аминов ва б. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 491-492 б.

амбулатория-поликлиника, фаолият юритгани ҳақида маълумот келтирилган¹³⁵. Архив ҳужатларида номлари қайд этилган тиббий муассасаларнинг 55 %и хусусий бўлиб, улар мулкчилик шаклига кўра турлича бўлган (хусусий фирма, хусусий корхона, масъулияти чекланган жамият, жамоа мулки асосидаги ташкилот ва б.) Тиббий муассасалар билан боғлиқ топонимларда ташкилотнинг давлатга тегишлилиги ёки хусусий эгалликдаги тиббий маскан эканлиги акс этган, шунингдек, қисқартирилган сўзлардан иборат ёки бир нечта сўзнинг бош ҳарфларидан ташкил топган. Жумладан, давлат бюджетда йирик тиббий марказ, касалхона, поликлиника, санитария-эпидемиология бўлимлари, илмий тадқиқот ҳамда даволаш масканлари, айрим стоматология ва дорихоналарнинг номларида муассаса тури, ихтисослашуви акс этган (Шаҳар 3-сон клиник шифохонаси, 2-сон оилавий поликлиника, Травматология ва ортопедия илмий-тадқиқот институти, 2 ТошМИ). Хусусий тиббий муассасаларнинг номларида эса ташкилот тури, фаолияти йўналишини билдирувчи сўзлар билан бир қаторда ўзига хос маънодаги сўзлар (шахс исмлари, тиббий соҳа билан боғлиқ атамалар, ижтимоий, маънавий ҳаётга оид тушунчалар) учрайди (ООО Doctor Vash, КП “Муродака”, ЧФ “Olmos-stoma servis”, НМЦ “Қамолот-Саломатлик”, ЧК “Medimax”).

2007 йил статистик маълумотларига кўра, пойтахтда Шаҳар Соғлиқни сақлаш Бош бошқармаси тасарруфидаги 154 та тиббий муассаса ва корхона, шу жумладан 60 та оилавий поликлиника, аҳолига хизмат қилган. Туманлар бўйича уларнинг сони қуйидагича: Бектемир туманида – 1 та, Мирзо Улуғбек т. – 16 та, Миробод т. – 12 та, Сергели т. – 8 та, Собир Раҳимов т. – 18 та, Учтепа т. – 13 та, Чилонзор т. – 14 та, Шайхонтоҳур т. – 18 та, Юнусобод т. – 21 та, Яккасарой т. – 13 та, Ҳамза т. – 20 та¹³⁶.

Уларнинг номларида муассасанинг тури, ҳудудий мансублиги, тартиб рақами, ихтисослиги каби аспектлар акс этган. Жумладан, ушбу топонимларнинг маъносига кўра таҳлили натижасида, қуйидаги топонимик гуруҳларга таснифлаш мумкин (4.8-жадвалга қаранг).

¹³⁵ Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5645-йиғмажилд 158-варақ; 5640-йиғмажилд, 1-103-варақлар; 5641-йиғмажилд, 1-105-варақлар; 5642-йиғмажилд, 1-36-варақлар.

¹³⁶ Тошкент шаҳар Соғлиқни сақлаш Бош бошқармаси маълумотлари. 2007 йил. Рўйхатда давлат ташкилотлари номлари қайд этилган.

Тошкент шаҳар давлат тиббий муассасалари номларининг таснифий гуруҳлари (2007 йил)

№	Топонимик гуруҳ	Топонимлар сони	Топонимларга мисоллар
1.	Ташкилотнинг тартиб рақами ва турини билдирувчи номлар	86	55-сон оилавий поликлиника, 4-сон болалар стоматология поликлиникаси
2.	Муассасанинг ҳудудий мансублиги, тури ва ихтисослигини акс эттирувчи топонимлар	31	Бектемир туман тиббиёт бирлашмаси, Сирғали туман марказий кўптармоқли поликлиникаси
3.	Тиббий масканнинг тартиб рақами, ихтисослиги ва тури билан боғлиқ номлар	30	Шаҳар 2-сон перинатал маркази, Шаҳар 7-сон туғруқ комплекси, Шаҳар 5-сон юқумли касалликлар клиник шифохонаси
4.	Ташкилот ихтисослиги ва фаолият тури билан боғлиқ топонимлар	5	“Нуроний” шаҳар клиник шифохонаси, “Қон преператлари” илмий ишлаб чиқариш корхонаси
5.	Шахс исми билан аталган ва муассаса ихтисослиги, рақами, фаолиятини акс эттирувчи номлар.	2	И.Эргашев номли шаҳар 4-сон клиник шифохонаси, Ибн Сино номли шаҳар 1-сон клиник шифохонаси.
	Жами	154	

Мустақиллик йилларида *шаҳар дорихоналари* (аптека), дори воситалари ва тиббий техника сифатини назорат қилиш тармоғи анча кенгайтирилган. Дори воситалари ва тиббий техника сифатини назорат қилиш Бош бошқармаси, “Дори-дармон” акциядорлик компанияси, “Доривор ўсимликлар” МЧЖ ва б. ташкил этилган. Давлат дорихоналари қатори хусусий дорихоналар ҳам фаолият кўрсата бошлаган. 2008 йилда Тошкентда 2000 дан ортиқ дорихона “Ўзстандарт” агентлигидан аккредитациядан ўтган 3 та дори воситаларини сертификатловчи лаборатория, шунингдек, Республика “Дори-дармон” АК ва назорат-таҳлил лабораториялари мавжуд бўлиб, улар аҳолини дори воситалари билан таъминлайди. Дорихона муассасалари мулкчилик шаклига кўра, акциядорлик, масъулияти чекланган ва хусусий турларга; ишлаб чиқариш хусусиятига кўра, тайёр дори воситаларини сотадиган ҳамда рецептга мувофиқ дори тайёрлаб берадиган, шунингдек, улгурчи савдо қиладиган ва касалхона ҳамда поликлиникалар қошидаги дорихоналарга бўлинган. Дорихоналар фаолияти Ўзбекистон Республикаси “Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги қонун (1997 йил) ва унга тегишли бошқарув ҳужжатларига асосан меъёролаштирилади¹³⁷.

Мазкур маълумотлар тиббий соҳага оид топонимларнинг миқдори,

¹³⁷ Тошкент: Энциклопедия..., кўрс.асар. – 199-200 б.

таркиби ва турларини тадқиқ қилиш имкониятини бериб, қўлга киритилган натижалар шаҳарда тиббий соҳанинг ривожланиши жараёни ҳамда унинг тарихий хусусиятларини аниқлашда муҳим аҳамиятга эга.

Умуман олганда, мустақиллик даврининг дастлабки ўн беш йиллигида ижтимоий соҳа, аниқроғи, таълим-тарбия ва соғлиқни сақлаш тизимидаги объектларнинг номлари Тошкент шаҳар Марказий давлат архиви ҳужжатларида қайд этилган бўлиб, улар айримлари рўйхатларда, айримлари алоҳида ҳолда учрайди. Мазкур номларни жамлаш натижасида ижтимоий соҳа объектларининг миқдори, шаҳар туманлари бўйича жойлашуви тўғрисида маълумотларга эга бўлиш мумкин. Ушбу микро-топонимларнинг семантик таҳлили натижасида эса, муассасаларнинг тури, тартиб рақами, фаолияти йўналиши, ҳудудий ёки бошқа турдаги мансублиги, улардаги мулкчилик шакли, бошқа, ўзига хос хусусиятлари аниқланади. Таъкидлаш жоизки, таълим-тарбия ҳамда тиббиёт соҳалари тизимларидаги эски шаклда қолган ташкилотлар салмоғи, янги услубда очилган муассасалар улуши, уларда давлатга тегишли бўлганлари, хусусий сектор тасарруфидагилари миқдори, мутаносиблиги, бозор иқтисодиётига ўтиш билан боғлиқ ислохотларнинг самарадорлиги кўрсаткичлари каби муҳим маълумотларни ижтимоий объектлар номларининг топонимик хусусиятларидан аниқлаш манбавий жиҳатдан асосли саналади. Ушбу маълумотлар Ўзбекистоннинг бозор муносабатларига ўтиш йўлидаги дастлабки, мураккаб, даврида ижтимоий соҳада кечган трансформацион жараёнларни ўзида акс этади.

Резюме

Мақола Тошкент шаҳрининг мустақилликнинг дастлабки давридаги ижтимоий соҳа муассасаларининг номланиши, турлари, миқдори, фаолияти масалаларига бағишланган. Ўзбекистон Республикасининг бозор иқтисодиётига ўтиши жараёнининг илк йилларида шаҳарда мавжуд таълим-тарбия ҳамда тиббиёт ташкилотларининг фаолиятидаги ўзгаришлар уларнинг номланишидаги трансформациялар орқали тадқиқ этилган. Ижтимоий соҳа билан боғлиқ микротопонимларнинг семантик гуруҳларга таснифи бажарилган.

Калим сўзлар: *ижтимоий соҳа, шаҳар, таълим-тарбия муассасалари, тиббий муассасалар, жой номлари, топонимик гуруҳлар, фаолият тури.*

Статья посвящена вопросам наименований, видов, количеству, деятельности организаций социальной сферы в г.Ташкенте в период независимости. Посредством трансформаций в наименованиях социальных объектов исследованы изменения, происходившие в деятельности учебно-воспитательных и медицинских учреждений в первые годы перехода на рыночные отношения в Узбекистане. Выполнена классификация на семантические группы микротопонимов социальной сферы.

Ключевые слова: социальная сфера, город, учебно-воспитательные учреждения, медицинские учреждения, наименования, топонимические группы, вид деятельности.

The article is devoted to the issues of names, types, quantity, and activities of social organizations in Tashkent during the period of independence. Through transformations in the names of social objects, the changes that occurred in the activities of educational and medical institutions in the first years of the transition to market relations in Uzbekistan were studied. The classification of microtoponyms of the social sphere into semantic groups has been carried out.

Keywords: social sphere, city, educational institutions, medical institutions, names, toponymic groups, type of activity.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР

1. Тошкент: Энциклопедия / Бош таҳрир хайъати: А.Акромов, Б.Ш. Алимов, М.Н. Аминов ва б. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 491-492 б.
2. Тошкент шаҳар Марказий давлат архиви (МДА). 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1508-йиғмажилд.
3. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1511-йиғмажилд.
4. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1510-йиғмажилд.
5. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5667-йиғмажилд.
6. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5669-йиғмажилд.
7. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1509-йиғмажил.
8. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5651-йиғмажилд.
9. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 1514-йиғмажилд.
10. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5670-йиғмажилд.
11. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5645-йиғмажилд.
12. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5640-йиғмажилд.
13. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5641-йиғмажилд.
14. Тошкент шаҳар МДА. 28-жамғарма, 4-рўйхат, 5642-йиғмажилд.
15. Тошкент шаҳар Соғлиқни сақлаш Бош бошқармаси маълумотлари. 2007 йил.
16. Тошкент шаҳар Ўрта махсус, касб-хунар таълими (ЎМКХТ) Бошқармаси статистик маълумотлари (2008/2009 ўқув йили бўйича).

ЗУМРАД РАҲМОНҚУЛОВА

XXI АСР ТУРКИЯ ТАРИХШУНОСЛИГИДА ЎЗБЕК
ТЕККАЛАРИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Ўрта Осиё хонликлари ва Усманийлар давлати ўртасидаги ижтимоий-маданий муносабатларнинг ривожланишида Истанбул шаҳрида фаолият юритган *теккалар* муҳим аҳамият касб этган. Улар Ўрта Осиё ва Усманийлар жамияти ўртасидаги маънавий ва ижтимоий мулоқотнинг барқарорлигини таъминлаган. Теккалар нафақат тасаввуфий марказ сифатида, балки турли ҳудудлардан келган зиёратчилар, талабалар, уламолар ва савдогарларни бирлаштирувчи ижтимоий макон сифатида ҳам фаолият кўрсатган.

Тадқиқотларда келтирилишича, Истанбулда жойлашган 8 та, баъзи маълумотларга кўра 5 та¹³⁸ ўзбек теккалари ҳажга кетаётган Ўрта Осиёликларга нафақат карвонсарой вазифасини ўтаган, балки уларнинг хужжатлари, молиявий аҳволи билан шуғулланувчи юридик муассаса ҳам ҳисобланган.

Туркияда сақланиб қолинган архив хужжатлари асосида теккалар масаласида бир қатор тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, Алкан Мустафа, Окан Яшилут¹³⁹ тадқиқотларида теккеларнинг ижтимоий фаолиятлари, Сулаймон Бейўғли, Овуч Эркан, Ҳулия Кичик¹⁴⁰ XX асрнинг 20-йилларида ўзбек теккаларини Туркияга миллий мужодала урушида моддий-маънавий ёрдами, Килич Абдуллоҳ, Мухаррам Варол¹⁴¹ теккеларнинг илмий фаолияти, Ишли Эсин Демирел¹⁴² теккалар биноларининг меъморий хусусиятлари, Эсра Дуран Турай, Уғўзхон Шахин, Ресул Ой, Юсуф Саринай¹⁴³ сўфийлик, саёҳатга ва сафарга чиқиш, ҳаж зиёрати масалаларини илмий тадқиқ қилганлар. Жумладан, Юсуф Саринай Ўрта Осиёликлар учун ҳажга боришда ва қайтишда Истанбулга тўхтаб ўтиш бир анъана тусига кирганлигини, улар яшаш учун асосан жоме ва Ўзбек теккаларида қолганлигини таъкидлаб ўтади.

Лале Жан¹⁴⁴ ҳам муаллифларнинг фикрини маъқуллаб, Одессадан тўла кемаларда Истанбулга келган йўловчиларнинг ҳар бири Ускудар

¹³⁸ Файбуллаев С. Бухоролик шайх ва элчи қисмати. – Тошкент, 2020. – Б.12.

¹³⁹ Alkan, Mustafa. Osmanlı Devleti'nde Özbek Tekkeleri. – İstanbul, 2019; Yeşilot, Okan. İstanbul'daki Türkistan Tekkeleri. – İstanbul, 2017.

¹⁴⁰ Beyoğlu, Süleyman. "Millî Mücadele ve Özbekler Tekkesi" // Üsküdar Sempozyumu (23–25 Mayıs 2003). – İstanbul, 2004; Övüç, E. Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet-Tekke İlişkileri. Doktora tezi. Çanakkale Onsekiz Mart Üniversitesi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü. – Çanakkale, 2022. Küçük, Hülya. Kurtuluş Savaşı'nda Bektaşiler. – İstanbul, 2003.

¹⁴¹ Kılıç, Abdullah. Tarihî Eserleriyle Üsküdar. – İstanbul, 2017; Varol, Muharrem. 19. Yüzyıl İstanbulu'nda Bazı Tekkelerin Matbaacılık Faaliyetleri. – İstanbul, 2013.

¹⁴² Isli Esin Demirel. İstanbul tekkelerinin mimari eklentileri ve restorasyonu. – İstanbul, 1998.

¹⁴³ Esra Duran Turay. Süfilerin Hac Yolculuğu. – İstanbul, 2019; Şahin, Oğuzhan. "Biyografik Metinlerde Yüceltme İmgesi: İlmî Seyahatler" // Uluslararası VIII. Türk Edebiyatı Sempozyumu Kitapçığı. – Diyarbakır, 2014; Ay, Resul. Anadolu ve Rumeli'de Derviş Seyahatları ve Kırsal Toplum İçin Gördüğü İşlevler. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2015; Sarıнай, Yusuf. Türkistanlı Hacıların Ziyaret Merkezi Olarak İstanbul. – İstanbul, 2019.

¹⁴⁴ Can, Lale. "Connecting People: A Central Asian Sufi Network at the Turn of the Twentieth Century" // Modern Asian Studies. 2012. Vol. 46, No. 2. – 373-401 p.

ўзбеклар теккаси “Мусофирлар дафтарлари”да қайд этилганлигини келтириб ўтади. Муаллиф хожиларнинг Истанбулда яшаган кентлар, кичик мусофирхоналар, даргоҳлар, теккалар ҳақида маълумот бераркан, Аюбда жойлашган теккани уларнинг маркази сифатида кўрсатади.

Халим Баки Кунтер¹⁴⁵ хожилар фақатгина Истанбулда эмас, балки Анатолиянинг бошқа шаҳарларида жойлашган мусофирхоналарда, завияларда¹⁴⁶ ҳам яшаганлигини келтириб ўтаркан, уларга маданий алоқаларнинг воситачилари деб тўғри таъриф бериб ўтган. Бу ўринда айтиб ўтиш керак-ки, улар келган жойларидан хабар билан бирга турли ривоятлар, эртакларни ҳам тарқатувчилари бўлганлар.

Кунтер Халим Баки, Ўғўзхон Шахин, Серпил Ўзжан, Ай Расуллар¹⁴⁷ томонидан Ускудар ўзбеклар теккасига оид тарихий маълумотлар манбалар асосида тадқиқ этилган. Тадқиқотлар тахлили шуни кўрсатадики, Ускудар ўзбеклар теккасида расмий иш юритиш ҳужжати сифатида уч хил дафтар қайдлари сақланиб қолинган. Булар: 1. Мусофир дафтарлари (1898-1906), 2. Расмий мусофир дафтарлари (1914-1925), 3. Ўзбеклар даргоҳида муқим яшаганлар руйхати дафтарлари ҳисобланади. Муаллифларнинг келтиришича, 1911 йилдан бошлаб теккада келиб муқим яшаганлар сони кўпайган¹⁴⁸. Султантепа, Аюб ва Султанахмат теккалари бир-бири билан яқин муносабатда бўлганлиги қолганлари эса алоҳида фаолият олиб борган.

Дафтарларда теккаларнинг молиявий ҳисоботлари, уларнинг даромадлари, сарф харажатлари, бу ерда вафот этганлар, жиноят қилганлар ва ҳайдалганлар тўғрисида батафсил маълумотлар келтириб ўтилади. Мазкур тадқиқотлар бирламчи манбалар сифатида архив ҳужжатлари жалб қилинганлиги билан ажралиб туради. Жумладан, Серпил Ўзжанинг тадқиқотларида¹⁴⁹ ўзбек теккаларининг турли маданият вакиллари жойлашган Истанбул аҳолиси билан алоқалари, савдо-сотиқдаги ўрни, жамиятга таъсири масалалари атрофлича тадқиқ этилган.

Теккаларнинг молия дафтарлари баъзи тадқиқотларда қисман ўрганилган бўлиб, тўлиқ ҳолда манбавий таҳлилга тортилмаган. Жумладан, Ж.Бекташ, М.Угур Дерман, М.Нерми тадқиқотларида ўзбеклар теккасининг асосчилари, уларнинг теккадаги ҳунармандчилик фаолияти, Е.Овуч¹⁵⁰ тадқиқотида Усманийлар давлатининг теккаларга муносабати

¹⁴⁵ Kunter, Halim Baki. “Tarsus’taki Türkistan Zaviyelerinin Vakıfları” // Vakıflar Dergisi. 1965. № 4. – 31-50 s.

¹⁴⁶ Завия – суфийликда шайх ва муридлари яшаган жой номи.

¹⁴⁷ Kunter, Halim Baki. “Tarsus’taki Türkistan Zaviyelerinin Vakıfları.” *Vakıflar Dergisi*, no. 4 (1965): 31–50; Şahin, Oğuzhan. “Biyografik Metinlerde Yüceltme İmgesi.” In *İlmî Seyahatler / Uluslararası VIII. Türk Edebiyatı Sempozyumu Kitapçığı*, 386–399. Diyarbakır, 2014; Özcan, Serpil. “Bir Seyyahlar Durağı: Sultantepe Özbekler Tekkesi.” In *Sultantepe Özbekler Tekkesi: Osmanlı’dan Cumhuriyet’e Bir Müessesenin Tarihi*, 61–81. İstanbul, 2023; Ay, Resul. *Anadolu ve Rumeli’de Derviş Seyahatleri ve Kırsal Toplum İçin Gördüğü İşlevler*. İstanbul, 2015.

¹⁴⁸ Özcan, Serpil. “Bir Seyahat Durağı: Sultantepe Özbekler Tekkesi.” In *Sultantepe Özbekler Tekkesi: Osmanlı’dan Cumhuriyet’e Bir Müessesenin Tarihi*, 66 s. İstanbul, 2023.

¹⁴⁹ Ўша жойда.

¹⁵⁰ Bektaş, C. “Nakşibandî Tarikatının Hâlidîyye Kolu ve Özbekler Tekkesi.” *Tarih ve Toplum*, no. 9 (1984): 38–43; Övüç, E. *Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet-Tekke İlişkileri*. Doktora tezi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü, Çanakkale Onsekiz Mart Üniversitesi, 2022; Nermi, M. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. Vol. 3. İstanbul, 2001.

масаласини тадқиқ этган. Текканинг молия дафтарларининг биринчи қайдлари 1872 йилда бошланган. Текканинг энг машхур шайхи Иброхим Адҳам афанди устачилик, ўймачилик, тўқимачилик, темирчилик, матбаачилик, эбручилик билан шуғулланган. Ушбу маълумотлар текка фақатгина хайр-эҳсон ҳисобидан фаолият олиб бормаганлигидан далолат беради. Улар Нақшбандия тариқатининг «Дил ба ёр-у даст-ба қор» (доим кўнглинг Аллоҳда бўлсин, қўлинг эса меҳнатда) деган ақидасига амал қилиб асосан ҳунармандчилик билан шуғулланганлигини кўриш мумкин. Юқорида кўриб ўтганимиз текка қайд дафтарларида уларнинг 20 га яқин ҳунармандчилик турлари билан шуғулланганлиги таъкидлаб ўтилган.

Ж.Бекташ, М.Нерми тадқиқотларида текка раҳбари Иброхим Адҳам афандининг буғ машинасига ўзгартиришлар киритганлиги билан халқаро миқёсда ном қозонганлигига эътибор қаратилади¹⁵¹. М.Угур Дерманнинг келтиришича, Иброхим Адҳам афандининг теккага келган мато тўқувчиси бўлган ҳинд дарवेशидан тўқимачилик сирларини ўрганиб устахона очган. Маълумки, бу даврда хинд матолари киммати жиҳатидан дунёда биринчи ўринда турган. Бу устахонада тўқилган матолар султон Абдулазиз (1861-1876)га ёқади ва саройга катта миқдорда сотиб олади¹⁵². Султон Абдуҳамид II (1876-1909) даврида Иброхим Адҳам афанди тўқимачилик, темирчилик ва дурадгорликдан ёшларга дарс берган ва шогирдлар етиштириб чиқарган. Текканинг чиллахоналари кечаси ибодат жойи, кундузи устахона вазифасини бажарган. Мехмед Аккуш, Али Йилмазларнинг таъкидлашича¹⁵³, Усмонзода Хусайн Вассабининг «Сефине-и авлий» асарида бу ҳақида маълумот бериб ўтган. Мазкур маълумотлар текканинг Усманийлар давлатининг ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги ўрни масалаларига ойдинлик киритади. Улар очган ишлаб чиқариш устахоналари аҳолини иш билан таъминлашга ҳисса қўшганлигини кўриш мумкин. Тадқиқотлардаги маълумотлардан Ўзбеклар теккасини саънат, ишлаб чиқариш ва ўқув маркази сифатида фаолият олиб борган эди дейишимиз мумкин бўлади. Бу ўринда Желал Мусахибзоданинг «Эски Истанбулнинг турмуш тарзи»¹⁵⁴ номли асарида теккани «Эснаф», яъни ҳунармандларнинг уюшмаси деб атаганлигини ҳам келтириб ўтмоқчимиз.

XVIII асрнинг ўрталарида ташкил этилган текка дастлаб Усманийларнинг ижтимоий, маданий, иқтисодий ҳаётида фаол иштирок этган бўлса, XX асрнинг 20-йилларида эса жамиятнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида фаол иштирок эта бошлаганлигини кўриш мумкин. Кевре Кубра Инже, Самих Нафиз Тансу, Хасене Илгаз, Мехмет Алтун, Режеб Челик, Женгиз Бекташнинг тадқиқотларида¹⁵⁵ текканинг Миллий Мужодала

¹⁵¹ Bektaş, C. "Nakşibandî Tarikatının Hâlidîyye Kolu ve Özbekler Tekkesi." *Tarih ve Toplum*, no. 9 (1984): 40 s.; Nermi, M. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. Vol. 3. İstanbul, 2001, 432–435 s.

¹⁵² Derman, M. Uğur. *Buhara'nın Vakent'inden Üsküdar'ın Sultantepe'sine*. İstanbul, 2008. 98 s.

¹⁵³ Akkuş, Mehmet, and Ali Yılmaz. *Osmanzâde Hüseyin Vassâf. Sefîne-i Evliyâ*. İstanbul, 2006. 376 s.

¹⁵⁴ Musahibzâde Celâl. *Eski İstanbul'un Yaşayışı*. İstanbul, 1946. 44 s.

¹⁵⁵ İnci, Merve Kübra. "Millî Mücadele'de İstanbul'dan Anadolu'ya Geçiş ve Özbekler Tekkesi'nin Rolü." In *Sultantepe Özbekler Tekkesi: Osmanlı'dan Cumhuriyet'e Bir Müessesenin Tarihi*, 129

уруши давридаги фаолияти атрофлича ёритилади. Окан Яшилут¹⁵⁶ бу даврда текканинг шайхи Ата афанди эканлигини келтириб ўтади. Самих Нафиз Тансунинг¹⁵⁷ келтиришича, текка Туркиядаги Миллий Мужодала уруши даврида яширин фаолиятларини олиб борадиган жой ва қурол-яроғ сақланадиган омборхона вазифасини ҳам бажарган¹⁵⁸. Истанбулни ишғол қилган инглиз қўшинлари дастлабки вақтларда текка, масжид каби диний муассасаларни назоратдан четда қолдирган эди. Женгиз Бекташ Шайх Ата афандининг инглизлар томонидан қўлга олинганлигини¹⁵⁹, Сулаймон Бейуғли эса буни рад этиб, фақатгина текка тинтув қилинганлигини, шундан кейин шайх Анқарага кетишга мажбур бўлганлигини таъкидлаб ўтади¹⁶⁰.

XVIII асрнинг ўрталарида ташкил топган текка ўз фаолияти давомида, ижтимоий, маданий фаолиятларни, ҳаж билан боғлиқ барча масалалар билан шуғулланган диний-маданий муассаса сифатида фаолият олиб борган. Тадқиқотларда текканинг XX асрнинг 20-йилларида Туркия фукаролари билан биргаликда миллий мужодала урушида қатнашганлиги қаҳрамонона ҳаракат сифатида баҳоланган. Тадқиқотларда икки асрга яқин вақт давомида фаолият олиб борган текканинг маданий, маърифий алоқаларида бевосита шайхларнинг ҳам ўрни масалалари ҳам бериб ўтилган.

Текка шайхлар Ўрта Осиёни тез-тез зиёрат қилиб турган ва бир вақтда норасмий элчилик вазифасини ҳам бажариб келганлар. Наниде Шимшир¹⁶¹ архив маълумотларига асосланиб, ўзбеклар теккаси шайхи Хожи Муҳаммад томонидан Амир Насруллога 1848 йилнинг июл ойида Усманийлар саройидан жўнатилган китобларни топширгани тўғрисида маълумот бериб ўтади. Фикримизча, текка шайхлари асосан анъаналарга мувофиқ Бухорога Хожа Баҳовуддин Накшбандийнинг қабрларини зиёрат қилишга келганлар ва орада элчилик вазифасини ҳам бажарган бўлиши мумкин. Текка шайхлари бу сафарлари давомида зиёратгоҳдаги масжид учун ҳам совғалар келтирган. Архив ҳужжатларида 1818 йилда Истанбулдан Бухорога Баҳовуддин Накшбандий масжиди учун лавҳ¹⁶² жўнатилганлиги тўғрисида маълумот сақланиб қолingan. Фикримизча,

s. İstanbul, 2023; Tansu, Samih Nafiz. Teşkilât-ı Mahsusa: İki Devrin Perde Arkası. İstanbul, 2012. 457 s.; Ilgaz, Hasene. “Millî Mücadele’de Varlığı Gizli Kalan Bir Cemiyet: Karakol Cemiyeti.” Tarih ve Edebiyat Mecmuası, no. 1 (1981): 12 s.; Altun, Mehmet. “Kuvâ-yı Milliyecilerin Gizli Sığınağı ve Ardındaki Bilinmeyenler: Özbekler Tekkesi.” Toplumsal Tarih 19, no. 112 (2003): 18 s.; Çelik, Recep. Millî Mücadele Günlerinde Din Adamları. Ankara, 2017. 81 s.; Bektaş, Cengiz. Sultantepe Özbekler Tekkesinin Tarihçesi (1753–1989). Ankara, 1964.

¹⁵⁶ Yeşilot, Okan. İstanbul’daki Türkistan Tekkeleri. İstanbul, 2017. 269 s.

¹⁵⁷ Tansu, Samih Nafiz. Teşkilât-ı Mahsusa: İki Devrin Perde Arkası. – İstanbul: Nokta Kitap, 2012. – 177 s.

¹⁵⁸ Gümbüz, Musa. Karakol Cemiyeti. Yüksek lisans tezi. Ankara Üniversitesi. – Ankara, 1987. – 95 s.

¹⁵⁹ Bektaş, C. “Nakşibandî Tarikatının Hâlidîyye Kolu ve Özbekler Tekkesi” // Tarih ve Toplum. 1984, sy. 9. – 23-24 s.

¹⁶⁰ Beyoğlu, Süleyman. “Millî Mücadele ve Özbekler Tekkesi” // Üsküdar Sempozyumu (23–25 Mayıs 2003). – İstanbul, 2004. – 20 s.

¹⁶¹ Şimşir, Nadide. “Osmanlı Arşiv Belgelerine Göre Osmanlı–Buhara Hanlığı Münasebetleri” // Türk-İslâm Medeniyeti Akademik Araştırmalar Dergisi. 2010, sy. 10. – s.121.

¹⁶² Belgelerle Osmanlı–Türkistan İlişkileri (XVI–XX. Yüzyıllar). – Ankara, 2004. – S. 23-25.

текка шайхлари Ўрта Осиё сафарларидан сўнг ўзлари зарур деб ҳисоблаган буюмларни Бухоро элчилар орқали ҳам жўнатишган.

Туркия тадқиқотчилари дастлаб текка тарихи, фаолияти масалалари ўрганган булсалар, XXI аср 20-йилларидан бошлаб улар архив ҳужжатлари асосида текка шайхлари масалаларини ўрганмоқда. Мелик Садик Кучукернинг тадқиқоти¹⁶³ шулар жумласидан ҳисобланиб, муаллиф текка шайхлари Шайх Ата ва Нажмиддин Ўзбеккангайларнинг (1971 йилда вафот этган) фаолиятларини атрофлича ёритган. 1924 йилда Туркия Жумҳурияти ташкил этилгандан кейин ўзбеклар теккаси шайхларининг авлодлари Ўзбеккангай фамилиясини қабул қилган.

Тадқиқотларни таҳлил этиш жараёни шуни кўрсатдики, теккаларнинг асосий вазифаси ҳажга отланган йўловчиларга карвонсарой вазифаси бажариши ва йўлда учраган барча муаммоларига амалий ёрдам беришдан иборат бўлган. Теккалар Ўрта Осиё хонликлари ва Усманийлар давлати ўртасидаги нафақат маданий-маърифий ва балки дипломатик алоқаларни ривожлантиришга ҳам катта ҳисса қўшган. Тадқиқотларда Истанбулда саккизта ўзбеклар теккаси борлигини, аммо бугунги кунда фақатгина уларнинг учтасининг жойи сақланиб қолганини тўғрисида маълумотлар келтирилган.

1923 йилда Туркия Жумҳурияти ташкил этилгандан кейин барча теккалар фаолияти қонунан тўхтатилган бўлса-да, Ускудар ўзбеклар теккаси ёпилмаган. Шундай бўлса-да текка аста-секин ўз фаолияти тугатган, бу даврга келганда Ўрта Осиёдан савдо ва ҳаж карвонлари келмай қўйганлиги туфайли, текка фақатгина адабий кечалар уюштириш маркази бўлиб қолган.

Резюме

Мақола замонавий Туркия тарихшунослигида Истанбул шаҳрида жойлашган ўзбек теккаларининг ўрганилиши масалаларига бағишланган. Тадқиқотда теккаларнинг Ўрта Осиё хонликлари ва Усманийлар давлати ўртасидаги ижтимоий муносабатлар тизимида тутган ўрни ҳамда уларнинг фаолиятига оид илмий ишлар тарихшунослик нуқтаи назаридан тасниф қилиниб таҳлил этилган. Шунингдек, теккаларнинг нафақат диний-маърифий муассаса сифатида, балки ижтимоий мулоқот, маданий алмашинув ва дипломатик алоқаларни таъминловчи муҳим муассаса сифатидаги вазифалари ёритилган. Мақолада ўзбек теккаларининг Усманийлар давлати ижтимоий-сиёсий, маданий ва иқтисодий ҳаётида тутган ўрни ҳам келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: *Ўрта Осиё, Усманийлар, Ўзбек теккалари, Истанбул, Султантепе, Аюб, Султанахмад, мусофир дафтарлари, “Тарбияи -атфол”, архив ҳужжатлари, манбалар.*

Статья посвящена изучению узбекских текке, расположенных в городе Стамбул, в современной турецкой историографии. В исследовании с историографической точки зрения проведена классификация и анализ научных

¹⁶³ Küçük, Melik Sadık. “Bir Şeyh Ailesinin Evrak-ı Metruklerinden Notlar: Özbekler Tekkesi Muhitinde Şeyh Ata ve Şeyh Necmeddin Efendiler” // Sultantepe Özbekler Tekkesi: Osmanlı’dan Cumhuriyet’e Bir Müessesenin Tarihi. – İstanbul, 2023. – 167 s.

работ, посвящённых деятельности текке и их роли в системе социальных отношений между среднеазиатскими ханствами и Османским государством. Также освещается значение текке не только как религиозно-просветительских учреждений, но и как важных институтов, обеспечивавших социальную коммуникацию, культурный обмен и дипломатические связи. В статье показано место узбекских текке в общественно-политической, культурной и экономической жизни Османского государства.

Ключевые слова: *Средняя Азия, Османское государство, узбекские текке, Истанбул, Султантепе, Эйюп, Султанахмет, гостевые реестры, «Тербийе-и этфаль», архивные документы, источники.*

The article is devoted to the study of Uzbek tekkes located in the city of Istanbul within the framework of modern Turkish historiography. From a historiographical perspective, the research provides a classification and analysis of scholarly works addressing the activities of the tekkes and their role in the system of social relations between the Central Asian khanates and the Ottoman State. The study also examines the significance of tekkes not only as religious and educational institutions but also as important centers facilitating social communication, cultural exchange, and diplomatic interaction. The article demonstrates the place of Uzbek tekkes in the socio-political, cultural, and economic life of the Ottoman State.

Keywords: *Central Asia, the Ottoman State, Uzbek tekkes, Istanbul, Sultantepe, Eyüp, Sultanahmet, guest registers, “Terbiye-i Etfal”, archival documents, historical sources.*

Фойдаланилган адабиётлар

1. Akkuş, Mehmet; Yılmaz, Ali. Osmanzâde Hüseyin Vassâf. Sefine-i Evliyâ. – İstanbul, 2006.
2. Alkan, Mustafa. Osmanlı Devleti’nde Özbek Tekkeleri. – İstanbul, 2019.
3. Altun, Mehmet. “Kuvâ-yı Milliyecilerin Gizli Sığınağı ve Ardındaki Bilinmeyenler: Özbekler Tekkesi” // Toplumsal Tarih. 2003. C. 19, sy. 112.
4. Ay, Resul. Anadolu ve Rumeli’de Derviş Seyahatları ve Kırsal Toplum İçin Gördüğü İşlevler. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2015.
5. Bektaş, C. “Nakşibandî Tarikatının Hâlidîyye Kolu ve Özbekler Tekkesi” // Tarih ve Toplum. 1984, sy. 9.
6. Belgelerle Osmanlı–Türkistan İlişkileri (XVI–XX. Yüzyıllar). – Ankara, 2004.
7. Beyoğlu, Süleyman. “Millî Mücadele ve Özbekler Tekkesi” // Üsküdar Sempozyumu (23–25 Mayıs 2003). – İstanbul, 2004. Derman, M. Uğur. Buhara’nın Vabkent’inden Üsküdar’ın Sultantepe’sine. – İstanbul, 2008.
8. Can, Lale. “Connecting People: A Central Asian Sufi Network at the Turn of the Twentieth Century” // Modern Asian Studies. 2012. Vol. 46, No. 2.
9. Derman, M. Uğur. “Edhem Efendi, Hezârfen” // Türkiye Diyanet Vakfı

İslâm Ansiklopedisi. 2022.

10. Esra Duran Turay. Sûfilerin Hac Yolculuğu. – İstanbul, 2019.
11. Gümbüz, Musa. Karakol Cemiyeti. Yüksek lisans tezi. Ankara Üniversitesi. – Ankara, 1987.
12. Ilgaz, Hasene. “Millî Mücadele’de Varlığı Gizli Kalan Bir Cemiyet: Karakol Cemiyeti” // Tarih ve Edebiyat Mecmuası. 1981, sy. 1.
13. İnci, Merve Kübra. “Millî Mücadele’de İstanbul’dan Anadolu’ya Geçiş ve Özbekler Tekkesi’nin Rolü” // Sultantepe Özbekler Tekkesi: Osmanlı’dan Cumhuriyet’e Bir Müessesenin Tarihi. – İstanbul, 2023.
14. Işlı, Esin Demirel. İstanbul Tekkelerinin Mimari Eklentileri ve Restorasyonu. – İstanbul, 1998.
15. Kılıç, Abdullah. Tarihî Eserleriyle Üsküdar. – İstanbul, 2017.
16. Küçük, Hülya. Kurtuluş Savaşı’nda Bektaşîler. – İstanbul, 2003.
17. Küçüker, Melik Sadık. “Bir Şeyh Ailesinin Evrâk-ı Metrûkesinden Notlar: Özbekler Tekkesi Muhitinde Şeyh Ata ve Şeyh Necmeddin Efendiler” // Sultantepe Özbekler Tekkesi: Osmanlı’dan Cumhuriyet’e Bir Müessesenin Tarihi. – İstanbul, 2023.
18. Kunter, Halim Baki. “Tarsus’taki Türkistan Zaviyelerinin Vakfiyeleri” // Vakıflar Dergisi. 1965, sy. 4.
19. Kunter, Halim Baki. “Tarsus’taki Türkistan Zaviyelerinin Vakıfları” // Vakıflar Dergisi. 1965, sy. 4.
20. Musahibzâde Celâl. Eski İstanbul’un Yaşayışı. – İstanbul, 1946. 44 s.
21. Nermi, M. Yüzyıllar Boyunca Üsküdar. 3 cilt. – İstanbul, 2001.
22. Övüç, E. Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet-Tekke İlişkileri. Doktora tezi. Çanakkale Onsekiz Mart Üniversitesi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü. – Çanakkale, 2022.
23. Özcan, Serpil. “Bir Seyyahlar Durağı: Sultantepe Özbekler Tekkesi” // Sultantepe Özbekler Tekkesi: Osmanlı’dan Cumhuriyet’e Bir Müessesenin Tarihi. – İstanbul: İSAR Yayınları, 2023.
24. Şahin, Oğuzhan. “Biyografik Metinlerde Yüceltme İmgesi: İlmî Seyahatler” // Uluslararası VIII. Türk Edebiyatı Sempozyumu Kitapçığı. – Diyarbakır, 2014.
25. Sarıнай, Yusuf. Türkistanlı Hacıların Ziyaret Merkezi Olarak İstanbul. – İstanbul, 2019.
26. Şimşir, Nadide. “Osmanlı Arşiv Belgelerine Göre Osmanlı–Buhara Hanlığı Münasebetleri” // Türk-İslâm Medeniyeti Akademik Araştırmalar Dergisi. 2010, sy. 10.
27. Tansu, Samih Nafiz. Teşkilât-ı Mahsusa: İki Devrin Perde Arkası. – İstanbul: Nokta Kitap, 2012.
28. Varol, Muharrem. 19. Yüzyıl İstanbulu’nda Bazı Tekkelerin Matbaacılık Faaliyetleri. – İstanbul, 2013.
29. Yeşilot, Okan. İstanbul’daki Türkistan Tekkeleri. – İstanbul, 2017. 269 s.
30. Файбуллаев С. Бухоролик шайх ва элчи қисмати. – Тошкент, 2020.

ШОИРА АКРАМОВА
ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИКИ «ОТКРЫТЫХ ДВЕРЕЙ»
НА ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ
ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ В КНР

Современное лидерство Китайской Народной Республики в области высоких технологий, искусственного интеллекта и аэрокосмических разработок имеет под собой глубокий исторический фундамент, который закладывался в период 1978–1998 гг., когда страна перешла от политики самоизоляции к стратегии «реформ и открытости». Однако успех китайской модернизации определялся не только импортом западного оборудования и притоком иностранного капитала, но и, прежде всего, наличием квалифицированных кадров, способных осваивать и воспроизводить передовые достижения мировой науки.

К моменту провозглашения курса на «четыре модернизации» в 1978 году научно-технический потенциал КНР находился в состоянии глубокого кризиса, вызванного последствиями «культурной революции». Дефицит квалифицированных инженеров, ученых и преподавателей ставил под угрозу реализацию амбициозных планов Дэн Сяопина. В связи с этим формирование новой научно-технической интеллигенции стало не просто образовательной задачей, а вопросом национальной безопасности и выживания государства в условиях глобальной конкуренции.

Китайская интеллигенция имеет глубокие исторические корни, прошла длительный путь от небольшой группы образованных людей до слоя и социального слоя. Её место в структуре китайского общества характеризуется как неустойчивое, зависимое от политики государства и его руководителей. С начала модернизации общества после «культурной революции» место и роль интеллигенции становятся все более значительными. Основными факторами, способствующими ее развитию, стали экономические и социальные реформы, развитие политических и законодательных институтов гражданского общества. Китайская интеллигенция является социальной группой, занимающей специфическое место в социальной структуре общества, выступает главным интеллектуальным двигателем преобразований и общественных перемен, которые происходят в КНР. Ее роль состоит в том, чтобы своими знаниями, опытом добиваться прогресса в социально-экономическом, политическом и духовном развитии общества. Место интеллигенции в социальной структуре китайского общества характеризуется нестабильностью. В революционном периоде она занимает важное место, является двигателем модернизационных процессов. Большинство интеллигенции поддержало образование КНР и лидеров страны.

В 50-е годы XX века положение интеллигенции было устойчивым. Начала развиваться система образования, открыты научно-исследова-

тельские институты, началось массовое обучение населения. Интеллигенция с энтузиазмом включалась в строительство нового государства. Но уже с момента образования КНР ставится вопрос разделения интеллигенции на «наших» и «враждебных». Особенно обостряется вопрос политической лояльности к идеологии Мао Цзэдуна в конце 60-х - начале 70-х годов XX века. Кампания «ста цветов и школ» явилась началом преследования интеллигенции¹⁶⁴. Она была причислена к эксплуататорскому классу. В период «культурной революции» был нанесен огромный ущерб интеллигенции. Прекратилось воспроизводство. Считается, что за этот период Китай потерял десять выпусков студентов высших учебных заведений. Практически высшее образование перестало существовать. Были сокращены сроки обучения до трех лет, ввели ускоренную подготовку. Студенты в это время занимались идеологическими вопросами, травлей преподавателей и профессуры, а не обучением.

К 1978 году научно-технический потенциал КНР находился в состоянии глубокого системного кризиса. Десятилетие «культурной революции» (1966–1976) нанесло катастрофический удар по интеллектуальному капиталу страны. Университеты были закрыты или работали формально, ученые подвергались репрессиям и принудительному физическому труду в деревнях. Интеллектуальный труд клеймился как «буржуазный», а профессионализм противопоставлялся идеологической лояльности¹⁶⁵.

Переломным моментом стала Всекитайская конференция по науке в марте 1978 года. Выступление Дэн Сяопина на этом форуме ознаменовало идеологический поворот: он провозгласил, что «наука и техника являются первой производительной силой», а интеллигенция — неотъемлемой частью рабочего класса. Этот концептуальный сдвиг легализовал статус ученого и инженера как ключевого субъекта национального развития. Первым практическим шагом стало восстановление системы единых государственных экзаменов (*Гаокао*) в конце 1977 года¹⁶⁶. Первые наборы студентов конца 70-х годов составили основу будущей научно-технической элиты, обладавшей высокой мотивацией к восстановлению страны.

Политика «открытых дверей» подразумевала отказ от опоры исключительно на собственные силы. В декабре 1978 года первая группа из 52 китайских ученых была направлена на стажировку в США. Это стало началом реализации масштабной программы «*люсюэцзиэн*» (обучение за рубежом). За период с 1978 по 1998 гг. государственную поддержку для обучения за границей получили сотни тысяч специалистов. Основными направлениями стали США, Япония, Германия и Великобритания. Ки-

¹⁶⁴ Кампания «Пусть расцветают сто цветов, пусть соперничают сто школ» (кит. 百花齐放 · 百家争鸣) – это политическая кампания в КНР, инициированная Мао Цзэдуном в 1956–1957 годах.

¹⁶⁵ Котова Р.И. Китайское студенчество в первое десятилетие реформ // Переход к рынку в КНР. Общество, политика, экономика. – М. 1994. – С.88.

¹⁶⁶ *Гаокао* (кит. 高考, gāokǎo) — это китайский государственный экзамен, который является единственным критерием для поступления в вузы.

тайское руководство осознанно шло на риск «утечки специалистов», понимая, что создание глобальной сети китайских ученых принесет плоды в долгосрочной перспективе.

Преобразования, начавшиеся с деревни в 1984 г., переносятся в город. Начинает меняться социальная структура китайского общества, появляются новые слои. Небольшая часть интеллигенции начинает заниматься частным бизнесом, создавать предприятия, принадлежащие к различным формам собственности. Политика «открытых дверей» повлекла за собой активное проникновение западных идей, ценностей. Данный процесс привел к преобразованиям вслед за экономическими реформами политических отношений. Например, к активной поддержке интеллигенцией студенческих выступлений в мае-июне 1989 г. В этих событиях проявился раскол внутри правящей элиты, между «консерваторами» и «реформаторами».

Процесс модернизации повысил роль интеллигенции в китайском обществе. Особенно повысился спрос на педагогическую интеллигенцию, так как повышение уровня образования тесно взаимосвязано с задачами модернизирующегося общества. Педагогическая интеллигенция является самым большим отрядом китайской интеллигенции и составляет 31,9% от всего числа интеллигенции, в отраслевой структуре она составляет 12,8% ¹⁶⁷.

Задачи реформирования промышленности, особенно государственного сектора поставили задачу увеличения количественной и качественной подготовки инженерно-технических работников. Наблюдается тенденция небольшого повышения доли сельской интеллигенции в социальной структуре при общем понижении численности сельского населения. В основном интеллигенция сконцентрирована в городе. Одной из актуальных проблем современного Китая является неоднородность в развитии регионов страны, что привело к различиям между *ханьской* интеллигенцией и национальной. Первоначальный уровень образования национальных меньшинств был значительно ниже. В процессе модернизации правительством стало больше уделяться внимания национальным меньшинствам: их образованию, экономическому развитию, участию в политической жизни страны. Ныне, среди 15 групп национальных меньшинств уровень образования выше, чем общегосударственный.

В демографической структуре китайского общества наблюдается диспропорция по соотношению между мужчинами и женщинами – 52:48. В структуре интеллигенции эта диспропорция больше: большинство из получивших высшее образование – это мужчины, женщины составляют 20-25% ¹⁶⁸. Произошли изменения в структуре воспроизводства интеллигенции. Если до «культурной революции» основными источниками являлись выходцы из «эксплуататорских» классов, то в современной КНР

¹⁶⁷ Маркова С.Д. Китайская интеллигенция на изломах XX века. – М.: Гуманитарий, 2004. – С.374.

¹⁶⁸ В.В.Кузнецова. Демографическое положение в КНР в 80-е годы // Китай на пути к рынку. Модель развития, демография, образование. – М.: РАН ИНИОН, 1996. – С.87.

большинство составляют представители рабочего класса и крестьянства, доля выходцев из интеллигенции – 20% ¹⁶⁹.

Важнейшим фактором формирования инженерно-технической интеллигенции стало создание Специальных экономических зон (Шэньчжэнь, Чжухай и др.) и привлечение иностранного капитала через совместные предприятия (СП). В отличие от советской модели, где промышленность была отделена от западных управленческих практик, китайские СП стали полигонами для обучения национальных кадров. Китайские инженеры, работая бок о бок с коллегами из *Volkswagen*, *Panasonic* или *Hewlett-Packard*, осваивали системы управления качеством, культуру промышленного дизайна, методы гибкого производства. Этот «практический университет» позволил сформировать слой технических руководителей, способных говорить на одном языке с международным бизнесом. Именно из этой среды в 90-е годы вышли основатели национальных брендов, таких как *Haier* и *Huawei*.

В марте 1986 года по инициативе четырех выдающихся ученых (Ван Ганьчана, Ван Дахэна, Ян Цзячи и Чэнь Фанюня) была принята Государственная программа развития высоких технологий, получившая название «План 863». Эта программа стала ответом на американскую «Стратегическую оборонную инициативу» и европейский проект «Эврика».

«План 863» сфокусировал усилия интеллигенции на семи ключевых направлениях: биотехнологии, информационные технологии, космос, лазеры, автоматизация, энергетика и новые материалы. В рамках программы была создана уникальная система грантов, которая стимулировала ученых переходить от фундаментальных изысканий к коммерциализации своих идей.

Символом этого перехода стало создание зоны Чжунгуаньцунь в Пекине. Район, плотно окруженный ведущими вузами (Цинхуа, Бэйда), превратился в «китайскую Кремниевую долину». Здесь в конце 80-х – начале 90-х зародился феномен «ученого-предпринимателя». Институциональная поддержка государства позволила вчерашним сотрудникам Академии наук Китая основать такие компании, как *Legend* (будущая *Lenovo*), заложив основы современного ИТ-сектора КНР ¹⁷⁰.

К концу 1990-х годов научно-техническая интеллигенция окончательно оформилась как привилегированная социальная группа. Произошла «технократизация» высшего партийного руководства. Лидеры «третьего поколения» (Цзян Цзэминь, Ли Пэн) в большинстве своем имели инженерное образование, что предопределило прагматичный, ориентированный на цифры и показатели стиль государственного управления. Важ-

¹⁶⁹ Котова Р.И. Китайское студенчество в первое десятилетие реформ // Переход к рынку в КНР. Общество, политика, экономика. – М. 1994. – С.88.

¹⁷⁰ Ломанов А.В. Научно-техническое развитие Китая: от заимствований к инновационному лидерству // Мировая экономика и международные отношения. — 2021. — Т. 65. — № 11. – С. 77.

ным итогом двадцатилетия стало изменение ментальности научно-технических кадров. На смену замкнутому «кабинетному» ученому пришел специалист, интегрированный в рыночные процессы, владеющий иностранными языками и ориентированный на глобальную конкуренцию.

Начиная с 1978 г. по настоящее время, интеллигенция претерпела в целом позитивные изменения. Политика «открытых дверей» позволила в кратчайшие сроки преодолеть технологическую пропасть, отделявшую Китай от развитых стран. Основным результатом этого процесса стало не просто приобретение западных чертежей, а создание суверенной системы воспроизводства высококвалифицированных кадров.

Китайская интеллигенция всемерно поддерживает реформы, которые содействовали укоренению и повышению их места в социальной структуре общества. В то же время они обеспокоены такими явлениями как, упадок морали, возрастание коррупции, захлестнувшего страну культа денег и погони за материальными благами. Китайская интеллигенция оказывает активное влияние на реформы, проходящие в стране. Это выражается как в разработке новых стратегических подходов к реформированию экономики, так и в политических демонстрациях. Социальный статус и структура китайской интеллигенции в условиях модернизации общества изменились по сравнению с периодом до 1978 г. в сторону повышения ее роли во всех сферах общества. Интеллигенция стала более активной социальной группой, влияющей на ход, содержание и темпы реформ.

Опыт КНР демонстрирует, что успех модернизации напрямую зависит от способности государства превратить интеллектуальную элиту в главный двигатель национального развития.

Резюме

Статья посвящена исследованию роли политики «открытых дверей» в процессе качественной и количественной трансформации научно-технической интеллигенции КНР. Автор анализирует исторический переход от идеологической изоляции периода «культурной революции» к прагматичной модели модернизации, инициированной Дэн Сяопином. В центре внимания находятся основные механизмы формирования кадрового потенциала: восстановление национальной системы высшего образования, государственные программы обучения студентов за рубежом (*люсюэшиэн*), восстановление системы «*гаокао*», а также роль совместных предприятий как площадок для трансфера управленческих и инженерных компетенций. Особое внимание уделено тому, как интеграция в мировое научное сообщество и заимствование западных образовательных стандартов позволили сформировать в Китае новую технократическую элиту.

Ключевые слова. КНР, Дэн Сяопин, политика «открытых дверей», научно-техническая интеллигенция, «*гаокао*», высшее образование, «*люсюэшиэн*», модернизация, инновационная система.

Ушбу мақола Хитой Халқ Республикаси илмий-техник зиёлиларининг сифат ва миқдор жиҳатидан трансформациялашув жараёнида «очиқ эшиклар» сиёсатининг тутган ўрнини тадқиқ этишга бағишланган. Муаллиф «маданий инқилоб» давридаги мафкуравий изоляциядан Дэн Сяопин томонидан асос солинган модернизациянинг прагматик моделига ўтиш босқичларини тарихий жиҳатдан таҳлил қилган. Кадрлар салоҳиятини шакллантиришнинг асосий механизмлари сифатида миллий олий таълим тизимининг тикланиши, талабаларни хорижда ўқитиш бўйича давлат дастурлари (люсюэшэн), «гаокао» тизимининг қайта йўлга қўйилиши, шунингдек, бошқарув ва муҳандислик компетенциялари трансфери майдончаси сифатида қўшма корхоналарнинг роли тадқиқ этилган. Мақолада жаҳон илмий ҳамжамиятига интеграциялашув ҳамда Ғарб таълим стандартларининг ўзлаштирилиши Хитойда янги технократик элитанинг шаклланишига қай даражада хизмат қилганига алоҳида эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: ХХР, Дэн Сяопин, «очиқ эшиклар» сиёсати, илмий-техник зиёлилар, «гаокао», олий таълим, «люсюэшэн», модернизация, инновацион тизим.

The article examines the role of the “open door” policy in the qualitative and quantitative transformation of the scientific and technical intellectuals of the People’s Republic of China. The author analyzes the historical transition from the ideological isolation of the Cultural Revolution to the pragmatic modernization model initiated by Deng Xiaoping. The study focuses on key mechanisms for developing human capital: the restoration of the national higher education system, state programs for students overseas (*liuxuesheng*), the reinstatement of the “gaokao” examination system, and the role of joint ventures as platforms for the transfer of managerial and engineering competencies. Particular attention is paid to how integration into the global scientific community and the adoption of Western educational standards facilitated the formation of a new technocratic elite in China.

Key words: PRC, Deng Xiaoping, “open door” policy, scientific and technical intellectuals, “gaokao”, higher education, “liuxuesheng”, modernization, innovation system.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Гельбрас В.Г. Социально-политическая структура КНР. 50-60-е годы. – М.: Наука, Главная редакция восточной литературы. 1980. – 264 с.
2. Котова Р.И. Китайское студенчество в первое десятилетие реформ // Переход к рынку в КНР. Общество, политика, экономика. – М. 1994. – С.88.
3. Кузнецова В.В. Демографическое положение в КНР в 80-е годы // Китай на пути к рынку. Модель развития, демография, образование. – М.: РАН ИНИОН, 1996. – С.87.

4. Ломанов А.В. Научно-техническое развитие Китая: от заимствований к инновационному лидерству // Мировая экономика и международные отношения. – 2021. – Т. 65. – № 11. – С. 77.
5. Маркова С.Д. Китайская интеллигенция на изломах XX века. – М.: Гуманитарий, 2004. – С.374.
6. Энциклопедия Нового Китая. – М.: Прогресс, 1989. – С.364.
7. Cheek T. From priest to professionals: Intellectuals and state under the CCP // Popular protest and political culture in modern China: Learning from 1989. – Boulder: Westview Press, 1992. – P. 124-145.
8. English-Lueck J.A. Chinese intellectuals on the world frontier. Blazing the black path. - Westport. L.: Bergin & Garvey, 1997. – 171 p.
9. Goldman M. The intellectuals in the Deng Xiaoping era // State and society in China. – Boulder, Westview Press, 1992. – P.193-219.

ШЕРЗОДЖОН ЧОРИЕВ

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИ СОВЕТ
ҲОКИМИЯТИНИНГ КОЛЛЕКТИВЛАШТИРИШ СИЁСАТИ
ТАРИХИГА ОИД МАНБА СИФАТИДА

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги соҳасини коллективлаштириш сиёсати тарихини ўрганиш совет ҳокимиятининг республикада олиб борган ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг мазмун моҳиятини очиб беришда муҳим аҳамият касб этади. Айнан 1924-1941 йилларда совет ҳокимиятининг колхозлаштириш сиёсати ўзининг муҳим босқичини босиб ўтди.

Нафақат Ўзбекистонда балки, бутун СССР давлат бошқарув тизимида қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш сиёсатини олиб бориш мақсадида кўпгина комиссарлик (вазирлик)лар, давлат органлари ташкил этилди. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш сиёсатига оид тарихий ҳужжатлар Ўзбекистон Миллий архивининг Ўзбекистон МИҚ (Р-86), ХКС (Р-837), Ишчи-Дехқон инспекцияси Халқ Комиссарлиги (Р-95), Ер ишлари Халқ комиссарлиги (Р-90), СССР ХКС қошидаги Ўрта Осиё иқтисодий кенгаши (Р-9), Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги жамоалари Иттифоқи (Р-196), Бутуниттифок Марказий касаба уюшмаси Кенгашининг Ўрта Осиё Бюроси (Р-736), Ўрта Осиё иқтисодий Кенгаши қошидаги Ўрта Осиё режа комиссияси (Р-10) фондларида сақланган. Шу ўринда таъкидлаб ўтиш лозимки, архивда мавзуга оид маълумотларни қидириб топишда муҳим аҳамият касб этган 2,5 мингдан ортиқ каталог карточкалар ҳам айнан юқорида санаб ўтилган ташкилотларнинг фондлари асосида тузилган. Карточкалар колхозлаштирилган хўжаликларга ёрдам кўрсатиш, электрлаштириш, тақдирлаш, статистик маълумотлар, қурилиш ишларининг олиб борилиши, даромадларни тақсимлаш, МТСлар билан ҳамкорлик, кооперациялар, қишлоқ хўжалиги кенгашлари рукнларида мавзулаштирилган.

Қишлоқ хўжалиги соҳасини коллективлаштириш сиёсати В.И. Лениннинг ижтимоий (социалистик) хўжаликларни кооперативлаштириш режаларида ҳам ўз аксини топган бўлиб, бу ислохотлар аслида шахсий мулкларни тугатиш ва жамоалашган ишлаб чиқариш тизимини йўлга қўйиб феодал муносабатларни тугатиш каби марксизм ғояларига асосланган эди¹⁷¹.

Дастлабки хўжаликларни коллективлаштириш ишлари 1917-1918 йилларда бошланган бўлиб, бу жараёнлар совет ҳокимиятининг йирик ер эгаларидан барча мол-мулк ва чорвалари билан мусодара қилиш сиёсатида акс этган эди. 1919 йилгача қишлоқ хўжаликларини коллективлаштириш истеъмолчи ва ишлаб чиқарувчилар бирлашмаси (коммуна) кўринишида шаклланиб, деҳқонлар учун артель ва деҳқончилик ширкатлари ташкил

¹⁷¹ Советская историческая энциклопедия. М.: Советская энциклопедия. 1965. Т.7, - С. 484

этилди. Масалан, 1918 йилда РСФСРда 1579 та, 1920 йилда 11644 та ар-теллар, бирлашмалар, деҳқончилик ширкатлари ташкил этилди.

В.И. Ленин таълимоти асосида коммунистик партия деҳқонларни аста-секин кооперациянинг энг оддий шакли матлубот жамиятидан турли ширкатлар орқали коллектив хўжалик – колхозларга олиб келди¹⁷².

Архивда сақланган ҳисоботларда маълумот берилишича, Туркистонда олиб борилган ер ислохотларидан сўнг 1922 йилда дастлабки жамоалаштирилган хўжаликлар ташкил этилган бўлиб, уларнинг сони 200 тагача бўлган¹⁷³. Айнан, Туркистон АССРда қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш сиёсати олиб борилганлигини кўплаб архив ҳужжатлари ҳам тасдиқлайди¹⁷⁴.

Аммо шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, совет ҳокимиятининг Янги Иқтисодий Сиёсати (кейинги ўринларда ЯИС деб берилади) даврида эркин товар айирбошлаш ва якка хўжаликдаги деҳқончиликка ҳамда кооперацияларнинг содда кўринишига урғу берилди. ЯИС ислохотларининг дастлабки йилларида жамоалаштирилган хўжаликларни ўз-ўзини молиялаштириш, яъни хўжалик ҳисобига ўтказилиши¹⁷⁵, шунингдек, жамоалаштирилган хўжаликларнинг қўшиб юборилиши, уларнинг ташкилий ва агро-ишлаб чиқариш жиҳатларидан қўллаб қувватланмаганлиги натижасида кўплаб колхозлаштирилган хўжаликларнинг тугатилиб кетишига олиб келди¹⁷⁶.

Ўзбекистонда совет ҳокимияти томонидан ер-сув ислохотларини ўтказилиши коллективлаштириш сиёсатини амалга оширишда муҳим аҳамият касб этди.

Ҳужжатларда маълумот берилишича, 1925 йил 2 декабрдан Ўзбекистон ССР ҳукумати декретига кўра, ер сувларни национализация қилиш сиёсати бошланган. Декретга кўра, 40 десятинагача Тошкент, Самарқанд ва Фарғона вилоятларида 50 десятинагача бўлган ерлар барча мол-мулки (жонли ва меҳнат куруллари билан) билан мусодара қилиш ишлари олиб борилган. Ер эгасининг 40 десятинадан ташқари барча фойдаланмайдиган ерлари барчаси мусодара қилинган¹⁷⁷.

Ҳисоботлардаги маълумотларга кўра, совет ҳокимияти дастлаб ўзига тўқ деҳқонларни давлат томонидан олиб бораётган иқтисодий сиёсатига жалб этиш мақсадида уларга давлат душмани сифати қарамаган. Аммо кейинчалик бой деҳқонларнинг мол-мулкларига нисбатан давлат томонидан террор уюштирилиши уларнинг норозиликларига сабаб бўлди¹⁷⁸.

¹⁷² Ўзбекистон колхоз ва совхозлар тарихи (очерклар). // I -III томда., I том. Муаллифлар жамоаси. Тошкент: Ўзбекистон. 1969. – Б.6.

¹⁷³ ЎзМА, Р-95-фонд, 1-рўйхат, 1060 йғмажилд, 42-варақ. “Отчетный доклад республиканского Оргбюро колхозов”.

¹⁷⁴ ЎзМА, Р-29-фонд, 1-рўйхат, 1502-йғмажилд, 407-варақ; Р-17-фонд, 1-рўйхат, 14-йғмажилд, 651-652-варақлар; Р-25-фонд, 1-рўйхат, 225-йғмажилд, 291-варақ; Р-25-фонд, 1-рўйхат, 609-йғмажилд, 17-варақ; Р-29-фонд, 3-рўйхат, 1754-йғмажилд, 41-варақ; Р-29-фонд, 3-рўйхат, 2235-йғмажилд, 1-6-варақлар ва бошқалар.

¹⁷⁵ Советская историческая энциклопедия.М.: Советская энциклопедия. 1965. Т.7, - С. 486.

¹⁷⁶ ЎзМА, Р-95-фонд, 1-рўйхат, 1060 йғмажилд, 42-варақ.

¹⁷⁷ ЎзМА, Р-837-фонд, 3-рўйхат, 244-йғмажилд, 30- варақ.

¹⁷⁸ Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения 1917-1937 гг. Ташкент: Фан. 1992. – С.94-95.

Шунингдек, диний ташкилотларнинг мол-мулкани тортиб олишда, аҳоли орасида катта ер, мол-мулк, савдо ва ишлаб чиқаришга ҳамда молиявий маблағга эга бўлган диний уламоларнинг ишчиларга таъсир доираси эътиборга олинмади. Масжид, мадраса, мактабларнинг вақф мулкларини тортиб олинishi ишчи деҳқонлар орасида ҳам кескин норозиликларга сабаб бўлди¹⁷⁹. Совет ҳокимияти ер-сув ислохотларини амалга оширишда камбағалларга берилиши шиори асосида ўзига тарафдор бўлган диний уламоларни ҳам топди. Ер халққа ҳаққоний тақсимланиши лозимлиги тўғрисида даврий матбуотларда диний уламоларнинг мурожаатлари эълон қилинди, ер ислохотлари сиёсати Куръон ва ҳадислар билан асослашга ҳаракат қилинди¹⁸⁰. Вақф мулкларининг тортиб олинishi республика аҳоли орасида диний ташкилотлар ва уламоларнинг таъсир доирасини пасайишига олиб келди. Оқибатда қишлоқларнинг асоси бўлган камбағал, деҳқон ва батраклар ислохотларда фаол иштирок эта бошлади. Йирик ер эгаларини аниқлаш ва рўйхатга олиш мақсадида тузилган Марказий Ер комиссиясининг ҳар бир округ, туманларда бўлимлари ташкил этилиб, 80% ер ўлчовчи ва ҳисобчилар коммунистлардан иборат эди. Ер ислохотлари натижасида катта ер эгаллиги муносабатларига кескин зарба бўлган бўлса-да, ерга мухтож бўлганларнинг барчасини ерга бўлган эҳтиёжини таъминлаб бера олмади. Мусодара қилинган 474893 десятина ердан фақатгина 10% камбағал деҳқонларга берилиб, қолган барча ерлар колхозларга ажратиб берилди.

1927 йил 2-19 декабрда бўлиб ўтган XV партия съездида қишлоқ хўжалиги соҳасини оммавий коллективлаштириш сиёсатининг вазифалари белгилаб берилди¹⁸¹. Айнан республиканинг биринчи беш йиллик режасининг охириги йилларида совет ҳокимияти қишлоқ хўжалиги соҳасини коллективлаштириш сиёсатига алоҳида эътибор қаратди. Натижада, 1927-1929 йилларда Ўзбекистондаги колхоз қурилиши икки босқичда амалга оширилиб, биринчи босқичда ўзбек қишлоқларида ер ислохотлари ўтказилди ва деҳқонлар қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сотувчи ва таъминот кооперативларига уюштирилди. Иккинчи босқичда эса деҳқонлар ишлаб чиқариш кооперативларига, яъни ерни биргалашиб ишлаш ширкати (ТОЗ), артель коммуна ва совхозлар ташкил этилди¹⁸².

Ўрта Осиё Иқтисодий Кенгашининг фондида сақланган жадвал ҳужжатда оммавий коллективлаштириш жараёнларига оид муҳим маълумотлар сақланган бўлиб, унга кўра, Ўзбекистонда 1926 й. 410, 1927 й. 740

¹⁷⁹ Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения 1917-1937 гг. Ташкент: Фан. 1992. – С.100.

¹⁸⁰ Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения 1917-1937 гг. Ташкент: Фан. 1992. – С.102-103.

¹⁸¹ Аминова Р. Х., Яцышина А. Ф. XV Съезд партии и его историческое значение. // Общественные науки в Узбекистане. 1967. №12. – С.17-20.

¹⁸² Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 1. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда / масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2019. – Б.511.

та, 1928 й. 748 та жамоа хўжаликлари ташкил этилган¹⁸³. Аммо шуни таъкидлаш лозимки, айрим ҳисоботларда маълумот берилишича, Ўзбекистонда 1927 йилда 864 та коллектив хўжаликлари бўлиб, қайта ташкил этиш ва қўшиб юбориш ишларидан сўнг уларнинг сони камайган¹⁸⁴. Аммо юқоридаги статистик маълумотлар таҳлилига кўра, 1926 йилга нисбатан, 1928 йилда жамоалаштирилган хўжаликлар сони XV партия съезидан кейин деярли икки бараварга ошган. Айнан бу маълумотларни архивда сақланган “Ўзбекистон ССР даги колхозлар сони ҳақида”ги статистик жадвал ҳужжати ҳам тасдиқлайди. Унда маълумот берилишича, 1926 йилда 2 та коммуна, 394 та қишлоқ хўжалиги артеллари ва 14 та бирлашма бўлиб, улар жами 410 тани ташкил этган. 1928 йилда тафтиш ишларидан сўнг 704 та (2 та коммуна, 545 та к/х артели, 157 та шерикчилик бирлашмалари) колхозлар бўлган¹⁸⁵.

Ўз навбатида совет ҳокимиятининг қишлоқ хўжалиги соҳасидаги коллективлаштириш сиёсатини олиб боришда совет хўжаликлари (совхозлар)¹⁸⁶ ҳам муҳим аҳамият касб этган. Ўзбекистонда совхозлар 1921 йилдан ташкил этилган. Бу ғоя ҳам В.И. Лениннинг майда деҳқон хўжаликларни йирик механизациялаштирилган социалистик қишлоқ хўжалиги соҳасидаги роли ғояси асосида амалга оширилган¹⁸⁷. Шу ўринда, 1926 йилларда республика қишлоқ хўжалиги соҳасида совет хўжалик (совхоз)лари ҳам муҳим ўрин тутган. Ҳужжатларда маълумот берилишича, 1925/26 йилда 115 та (8.784 гектар), 1926/27 йилда 119 та (12.616 гектар) совхозлар бўлган. Уларни ташкил этиш учун совет ҳукумати томонидан жами 4.214.930 рубль сарфланган¹⁸⁸.

1928 йилда Ўзбекистон МИҚ ва ХКСсининг №66 сонли “Коллектив хўжаликлар тўғрисида”ги қарори қабул қилиниб, унга кўра колхозларни ер билан таъминлаш вазифаси Ер ишлари халқ комиссарлигига юклатилган. Қарорда кўрсатилишича суғориладиган ерлар биринчи навбатда колхозларга берилиши, “Ўзсув” хўжалиги бошқармаси эса колхоз ерларини биринчи ўринда суғориш ва мелиоратив хизмат кўрсатиш, қурилиш ва ёғоч ишлаб чиқарувчи колхозларга, айниқса, қизил армиячилар оиласига алоҳида имтиёзлар берилиши кўрсатиб ўтилди. Шунингдек, Машиналар, сифатли уруғлар, ишчи ҳайвон, ўғитлар билан таъминлаш, зараркунандаларга қарши кураш чора тадбирларида ҳам колхозларга навбатсиз хизмат кўрсатиш белгилаб берилди¹⁸⁹.

Архивнинг Р-9-фондида сақланган жадвал ҳужжатида 1927 йилда СССР аҳолисининг ижтимоий аҳволига оид қуйидаги кўрсаткичлар берилган:

¹⁸³ ЎзМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1575-йиғмажилд, 6-варақ.

¹⁸⁴ ЎзМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1060-йиғмажилд, 45-46-варақлар.

¹⁸⁵ ЎзМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1060-йиғмажилд, 69-варақ.

¹⁸⁶ Совхозлар – совет хўжаликлари – давлат ерида ташкил этилган ва давлатга қарашли ишлаб чиқариш воситалари билан таъминланган йирик қишлоқ хўжалиги корхоналари.

¹⁸⁷ Ўзбекистон колхоз ва совхозлар тарихи (очерклар). // I -III томда., I том. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Ўзбекистон. 1969. – Б.16.

¹⁸⁸ ЎзМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1571-йиғмажилд, 40-варақ орқаси.

¹⁸⁹ ЎзМА, Р-95-фонд, 1-рўйхат, 1060-йиғмажилд, 16-20-варақлар.

Дехқончилик ҳудудлари (фоиз ҳисобида 1927 йил)¹⁹⁰

№	Республикалар номлари	Камбағаллар	Ўрта ҳол аҳоли	Ўзига тўқ аҳоли
1	УССР	16,3	79,5	4,2
2	РСФСР	28,6	68,4	3,0
3	БССР	46,4	52,5	1,1
4	Туркманистон ССР	34,4	64,6	1,0
5	Ўзбекистон ССР	37,6	61,0	1,4
6	Кавказorti СФСР	57,7	40,8	1,5
7	Чорвачилик ҳудудлари	80,0	17,3	2,7
	Жами	29,4	67,3	3,1

Жадвал маълумотида кўра, республиканинг камбағал аҳоли вакиллари Бутуниттифок бўйича 3, ўрта ҳол ва ўзига тўқ аҳоли фоиз кўрсаткичи бўйича 4 ўринда бўлган.

1930 йил 5 январдан ВКП(б) МКнинг Коллективлаштириш суръати ва колхоз қурилишига давлат ёрдами бериш тадбирлари тўғрисида”ги қарори коллективлаштиришни сунъий тезлаштириш ва “социалистик мусобақа”нинг кимўзди пойгаси авж олдирилди. Коллективлаштириш бўйича СССР ҳудудида учта гуруҳ районларга бўлиниб, Ўзбекистон учинчи гуруҳга киритилди ва 1933 йилгача республикада коллективлаштириш ишлари тугатилиши белгиланди ҳамда оммавий коллективлаштириш ишлари бошланди¹⁹¹. Бундай мусобақаларнинг ташкил этилиши қоқ колхозларнинг бор куч имкониятларини ишга солиб ушбу мусобақаларга иштирок этишга мажбур бўлди. Афсуски, барча колхозларнинг моддий техник захираси бу талабларга жавоб бермас эди. Овқатланиш учун шарт-шароитларнинг яхши эмаслиги, техник воситалар, тарози, қоп, партуқлар (фартук) ва бошқаларнинг етишмаслиги муаммолари кўплаб колхозларда мавжуд бўлган¹⁹².

¹⁹⁰ ЎзМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1575-йиғмажилд, 24-варақ.

¹⁹¹ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 1. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда / масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент.: «O‘zbekiston» НМИУ, 2019. – Б.511.

¹⁹² Мачин Г.В. Колхозное строительство и социалистическое соревнования в узбекском кишлаке в годы первой пятилетки. //Материалы по истории, историографии и археологии. Ташкент, ТашГУ. 1976. – С.90-91.

Архивда сақланган 1932 йил Ўзбекистон ССР МИҚ сессия материалларида маълумот берилишича, 1931 йил охиригача қишлоқларни коллективлаштириш 68,7% етказилган¹⁹³. 1932 йилга келиб пахта асосан колхоз ва совхозларда етиштирилди.

Республикада колхозлаштириш сиёсати биринчи беш йилликда 74%, иккинчи беш йилликда эса 95%га етказилди. 1940 йилда деҳқон хўжаликларининг 99,2% 7514 та колхозларда (793.000 деҳқон хўжаликлари) бирлаштирилган эди.

Хужжатларда маълумот берилишча, 1930 йилда партия ташкилотларининг ташаббуси билан Ўзбекистонда 120 мингдан ортиқ кишини қамраб олган 700 дан ортиқ жамоалаштирилган хўжаликлар ташкил этилди¹⁹⁴.

Тадқиқотларда маълумот берилишича, 1932 йилга келиб, коллективлаштирилган хўжаликлар ва совет хўжаликлари асосий пахта етиштирувчи хўжаликларига айланди¹⁹⁵.

Архивда сақланган “Сводка о коллективации по колхозам в районном разрезе республик Средней Азии за 1932/33 г.” номли 20 варақдан иборат ҳисобот ҳужжатида Ўрта Осиё республикаларидаги 1932 йил 1 ноябр ҳолатига кўра коллективлаштириш бўйича туманлар кесимида муҳим статистик маълумотлар берилган. Ушбу ҳужжатда маълумот берилишича, Ўзбекистон бўйича 61 та тумандаги 771 263 минг хўжаликдан 548000 мингтаси (71.1%) 8212 та пахтачилик колхозларига бириктирилган.

Манбада кўрсатилишича, энг кўп колхозлар Наманган (262 та), Избоскан (266 та), Мирзачўл (219 та), Оқдарё (233 та), Шеробод (233 та) туманларида ташкил этилган бўлса, Патта-кесар (25 та), Юқори Чирчиқ (42 та), Бекобод (46 та) туманларида уларнинг сони энг кам миқдорни ташкил этган¹⁹⁶. Шу жумладан, Ғаллаорол, Каттақўрғон, Яккабоғ, Хавас, Паркент туманларида 22.455 хўжаликни қамраб олган 360 та буғдой экинига ихтисослашган колхозлар ҳам ташкил этилди. Совет ҳокимияти фақатгина бу хўжалик турлари билан чекланиб қолмади, балки Бойсун, Конимех, Жиззах, Қорақўл, Зомин, Косон, Ғузор, Чирокчи, Нурота туманларида 51 739 та хўжаликни қамраб олган 737 та колхозлар ташкил этилди. Шунингдек, 58677 та хўжаликларнинг 46983 тасида 381 та боғ ва полизчиликка ихтисослашган колхозлар ташкил этилди. Шу йили республика бўйича 955.077 та хўжаликнинг 669167 тасида жами 9690 та колхозлар ташкил этилиб, умумий хўжаликларнинг 70,1% ни қамраб олган эди¹⁹⁷.

Тадқиқотларда маълумот берилишича, 1932 йилда Ўзбекистонда 590,4 минг тонна ўрнига 787,2 минг тонна пахта хомашёси топширилган. Ўрта Осиё хусусан, Ўзбекистонни пахта экинига моно-маданиятлашти-

¹⁹³ Постановления второй сессии ЦИК Советов Уз ССР четвертого созыва. Государственный издательство УзССР социально-экономический отдел. 1932. Ташкент. -С.5.

¹⁹⁴ ЎЗМА, Р-736-фонд, 1-рўйхат, 160-йиғмажилд, 211-варақ.

¹⁹⁵ Ибрагимова А.Ю. Осуществление Ленинского кооперативного плана в Узбекистане (1927- 1932 гг.). // автореф. дисс. к.и.н. – Ташкент.: Фан. 1971. – С. 15-20.

¹⁹⁶ ЎЗМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 2008-йиғмажилд, 2-варақ.

¹⁹⁷ ЎЗМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 2008-йиғмажилд, 3-варақ.

рилиши СССРга қандай фойда келтирди? Биринчидан, 1936 йилда СССР Жаҳон бозорида пахта етиштириш бўйича АҚШ ва Ҳиндистондан кейин 3 ўринга чиқди. Иккинчидан, Бутун СССРни пахта импорти эҳтиёжидан озод қилди. Учинчидан, мамлакатни жуда катта миқдордаги валюта ҳаражатларидан озод қилди¹⁹⁸. Биринчи беш йилликда мамлакат экспортида нефть, кўмир, металл ва машина ва пахта матоларининг экспорт ҳажми кескин ошди. 1928 йилда пахта матолари экспорти ўрмон материаллари, нефть маҳсулотлари, зиғир толаси кейин туриб, СССР экспортининг 4,8% ташкил этган бўлса, 1932 йилда экспорт товарлари ичида учинчи ўринга чиқиб, мамлакат экспортининг 9,0%ни ташкил этган¹⁹⁹.

Ўзбекистон етиштирган пахта СССР иқтисодиётида қандай аҳамият касб этганини қуйидаги жадвалда ҳам кўриш мумкин.

СССРнинг пахта импорти йиллар кесимида²⁰⁰

№	Йиллар	СССРда етиштирилган пахта (минг тонна ҳисобида)	Пахта импорти (минг тонна ҳисобида)	СССРнинг пахта бўлган эҳтиёжи (минг тонна ҳисобида)	Пахта импортининг ўрни (% ҳисобида)
1	1924/25	89,5	122,0	211,5	57,7
2	1925/26	163,0	102,6	265,6	38,5
3	1926/27	168,6	138,2	306,8	45,1
4	1927/28	209,0	145,0	354,0	41,0
5	1928/29	253,4	126,8	380,2	33,4
6	1929/30	262,4	62,7	325,1	19,3
7	1931	301,8	47,6	349,4	13,6
8	1932	386,3	21,0	407,3	5,2
9	1933	394,8	10,5	405,3	2,6
10	1934	381	24	403	5,9
11	1935	529	44	573	7,6
12	1936	613	15	628	2,3

Жадвал маълумотига кўра, 1924/25 йилга кўра 1936 йилга келиб СССР пахта импортига бўлган эҳтиёжи 57,7%дан 2,3% га тушди.

¹⁹⁸ Мишустин Д. Д. Внешняя торговля и индустриализация СССР / Д.Д. Мишустин; НИИ монополии внешней торговли. – М.: ВО «Междунар. книга», 1938. – С.202.

¹⁹⁹ Мишустин Д. Д. Внешняя торговля и индустриализация СССР / Д.Д. Мишустин; НИИ монополии внешней торговли. – М.: ВО «Междунар. книга», 1938. – С.109.

²⁰⁰ Мишустин Д. Д. Внешняя торговля и индустриализация СССР / Д.Д. Мишустин; НИИ монополии внешней торговли. – М.: ВО «Междунар. книга», 1938. – С.202.

**1933-1934 йилларда Ўзбекистоннинг СССР бўйича топширган
пахта улуши²⁰¹**

№	Пахта топширган ҳудудлар	1933 йил (минг центнер хисобида)	1934 йил (минг центнер хисобида)
1	Сталинград ўлкаси	0	0,2
2	Азов-Черномор ўлкаси	13,7	1
3	Шим.Кавказ ўлкаси		8,2
4	Қрим ўлкаси	0,9	0,6
5	Қозоғистон ССР	32,5	48,2
6	Қорақалпоқ АССР	9,1	8,0
7	Қирғистон АССР	23,4	36,8
8	РСФСР	79,6	103,0
9	Украина ССР	1,5	7,4
10	ЗСФСР	90,7	122,2
11	Туркменистон АССР	54,7	68,5
12	Тожикистон АССР	36,7	47,9
	Жами юқоридаги республикалар бўйича	263,2	349
	Ўзбекистон ССР	301,6	466,7
	СССР бўйича жами	564,8	815,7

Жадвалдаги статистик маълумотлар таҳлилига кўра, Ўзбекистон СССР-нинг 1933 йилда 54% фоиз, 1934 йилда 57,2% пахтасини етиштирган.

1934 йилнинг кузига келиб деҳқончилик хўжаликларининг 70% колхозлаштирилган эди. Совет хўжаликлари 84 та, колхозлаштирилган хўжаликлар сони эса 8612 тага етган эди²⁰². Аммо бу кўрсаткич даврий адабиётларда 8737 та колхозлар ташкил этилди, колхоз ва совхозларнинг экин майдонлари 96,6% га етганлиги ҳақида маълумотлар бериб ўтилган.

Хулоса қилиб айтганда, айнан И.В. Сталин даврида қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш сиёсати В.И. Лениннинг сиёсати қиёсий ўхшаш равишда, яъни дастлаб ерларни мусодара қилиш, кейинги босқичда эса оммавий коллективлаштириш сиёсати олиб борилган.

Совет ҳокимиятининг қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш сиёсати жараёнларини 1928–1929 йилларда оммавий равишда коллективлаштиришга тайёргарлик кўриш, 1929–1932 йилларда яқка хўжаликларни оммавий жамолаштириш сиёсатининг олиб борилиши ва 1933-1937 йилларда қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш сиёсатини тугаллаш босқичларини амлага оширган. Аммо тарихий маълумотлар таҳлилига кўра, совет ҳокимиятининг қишлоқ хўжалиги соҳасини коллективлашти-

²⁰¹ Сельское хозяйство СССР. Ежегодник 1935. – Москва: Сельхозгиз, 1936. – С.708.

²⁰² ЎзМА, Р-737-фонд, 1-рўйхат, 2352-йиғмажилд, 32-варақ.

риш сиёсати 1917–1918 йилларда коллективлаштириш сиёсатининг бошланғич даври, 1921–1928 йилларда коллективлаштириш сиёсати (бўйича ўз қарашларини ўзгартирмаган бўлса-да)нинг инқироз даври босқичларини ҳам босиб ўтганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим.

Колхозларда пахта етиштириш натижасида Ўзбекистон ССР Бутуниттифоқнинг 1933 йилда 54% фоиз, 1934 йилда 57,2% пахтасини етиштириб, пахта импорти харажатларини тежашига сабаб бўлган.

Резюме

Ушбу мақолада Ўзбекистон Миллий архивида сақланган совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда колхозлаштириш сиёсати тарихига оид ҳужжатлар таҳлил этилган. Тадқиқотда колхозлаштириш сиёсати тарихига оид маълумот берувчи фондлар ва улар таркибида сақланган ҳужжатлар ҳам таҳлил этилган. Шунингдек, совет ҳокимиятининг оммавий колхозлаштириш ишларига оид бир қатор статистик маълумотлар, пахта етиштириш борасида СССР қишлоқ хўжалиги соҳасига Ўзбекистон ССРнинг қўшган улуши архивда сақланган жадвал маълумотлари асосида ёритилган.

Калит сўзлар: *Ўзбекистон Миллий архиви, архив фондлари, архив ҳужжатлари, Ўзбекистон ССР, совет ҳокимияти, колхозлаштириш, пахта етиштириш, қишлоқ хўжалиги, совет хўжаликлари, пахта моно-маданияти.*

В данной статье анализируются документы по истории политики колхозов Советского Союза в Узбекистане, хранящиеся в Национальном архиве Узбекистана. Также анализируются фонды, содержащие информацию об истории политики колхозов, и хранящиеся в них документы. Кроме того, на основе табличных данных, хранящихся в архиве, представлен ряд статистических данных о работе по массовой коллективизации, проводимой Советским Союзом, и вкладе Узбекской ССР в сельскохозяйственный сектор СССР в хлопководстве.

Ключевые слова: *Национальный архив Узбекистана, архивные фонды, архивные документы, Узбекская ССР, советская власть, колхозы, хлопководство, сельское хозяйство, советские хозяйства, монокультура хлопка.*

This article analyzes documents on the history of Soviet collective farm policy in Uzbekistan, stored in the National Archives of Uzbekistan. It also examines collections containing information on the history of collective farm policy and the documents stored therein. Furthermore, using tabular data stored in the archive, a series of statistical data is presented on the mass collectivization efforts carried out by the Soviet Union and the contribution of the Uzbek SSR to the USSR's agricultural sector in cotton production.

Keywords: *National Archives of Uzbekistan, archival funds, archival documents, Uzbekistan SSR, Soviet power, collective farms, cotton growing, agriculture, Soviet farms, cotton monoculture.*

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР

1. Аминова Р. Х., Яцышина А. Ф. XV Съезд партии и его историческое значение. // Общественные науки в Узбекистане. 1967. №12. – С.17-20.
2. Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения 1917-1937 гг. – Ташкент: Фан. 1992.
3. Ибрагимов А.Ю. Осуществление Ленинского кооперативного плана в Узбекистане (1927- 1932 гг.). // автореф. дисс. к.и.н. – Ташкент.: Фан. 1971. – С. 15-20.
4. Мачин Г.В. Колхозное строительство и социалистическое соревнования в узбекском кишлаке в годы первой пятилетки. //Материалы по истории, историографии и археологии. – Ташкент, ТашГУ. 1976.
5. Мишустин Д. Д. Внешняя торговля и индустриализация СССР / Д.Д. Мишустин; НИИ монополии внешней торговли. - М.: ВО «Международ. книга», 1938.
6. Постановления второй сессии ЦИК Советов Уз ССР четвертого созыва. Государственное издательство УзССР социально экономический отдел. – Ташкент, 1932.
7. Сельское хозяйство СССР. Ежегодник 1935. – Москва: Сельхозгиз, 1936. – С.708.
8. Советская историческая энциклопедия. М.: Советская энциклопедия.– Тошкент, 1965. – С. 484.
9. Ўзбекистон колхоз ва совхозлар тарихи (очерклар). // I -III томда., I том. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Ўзбекистон. 1969.
10. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 1. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда / масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент.: «O'zbekiston» НМИУ, 2019.
11. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1575-йиғмажилд.
12. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-17-фонд, 1-рўйхат, 14-йиғмажилд.
13. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-25-фонд, 1-рўйхат, 225-йиғмажилд.
14. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-25-фонд, 1-рўйхат, 609-йиғмажилд.
15. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-29-фонд, 1-рўйхат, 1502-йиғмажилд.
16. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-29-фонд, 3-рўйхат, 1754-йиғмажилд.
17. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-29-фонд, 3-рўйхат, 2235-йиғмажилд.
18. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-95-фонд, 1-рўйхат, 1060 йиғмажилд, 42-варак. “Отчетный доклад республиканского Оргбюро колхозов”.
19. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-736-фонд, 1-рўйхат, 160-йиғмажилд.
20. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-737-фонд, 1-рўйхат, 2352-йиғмажилд.
21. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-837-фонд, 3-рўйхат, 244-йиғмажилд.

AZIZBEK NAZAROV

IMPERATORLIK SHARQSHUNOSLIK JAMIYATI TOSHKENT
BO'LIMINING TASHKIL ETILISHI TARIXI

Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati Rossiya imperiyasi Moliya vazirligining tashabbusi bilan 1900-yil 29-fevralda ta'sis etilgan. Jamiyatning markaziy boshqaruv organi Sankt-Peterburgda joylashgan. Peterburgda jamiyatning markaziy boshqaruv kengashiga ega bo'lgan holda jamiyat o'z bo'limlaridan ham tashkil topgan. Dastlab jamiyat Moskva, Nijniy Novgorod, Qozon, Astraxan, Tiflis, Yerevan, Boku, Toshkent, Buxoro va Ashxobod, shuningdek Varshava, Lodzi va Odessada bo'limlarni tashkil etishni rejalashtirilgan. Lekin bularning barchasiyam ijobiy natijalar ko'rsata olmagan. Hattoki Baku va Buxoro bo'limlari rasman ochilmagan²⁰³.

Jamiyatning asosiy maqsadi – Sharq xalqlari o'rtasida Rossiyaga doir aniq va to'g'ri ma'lumotlarni yoyish hamda rus jamiyatini sharqning moddiy ehtiyoji va ma'naviy hayoti bilan tanishtirishdan iborat bo'lgan.

Buning uchun jamiyat Rossiya hududi va undan tashqarida o'z faoliyatini olib borishni rejalashtirib, maqsadga erishish uchun Nizomida belgilangan quyidagi vazifalarni amalga oshirishi darkor edi:

a) barcha vositalarni ishga solgan holda Sharq xalqlarini iqtisodiy va savdo sanoat holatida o'rganish ayniqsa rus tovarlarini bozorlarga olib kirish va sotish;

b) Rossiya va Sharq mamlakatlarida vaqtinchalik ko'rgazmalar va doimiy muzeylarni tashkil qilish, o'zaro savdo-sanoat, tabiiy boyliklar va turmush tarzi bilan tanishtirish;

v) sharqshunoslik masalalariga doir fikrlar almashinuvi uchun a'zolarining davriy yig'ilishlarini tashkil etish.

g) Sharqning turli xalqlari madaniyati va iqtisodiy ahvolini o'rganish, hamda ular bilan yaqinlashish uchun sharq xalqlari tillarini o'rganish kurslari va sharqshunoslik masalalariga doir ma'ruzalarni tashkil etish. Bunda antropologiya, tarix, din va turmush tarzi masalalariga alohida e'tibor qaratish;

d) Rossiyaning urf-odatlarini dunyoqarashi, ma'rifati haqidagi nashrlar bilan Sharq xalqlarini tanishtirish.

e) sharqshunoslikning turli sohalariga oid rus tilidagi asarlarni nashr qilish yoki nashr ishlariga yordam berish. Shuningdek, tanlov orqali bunday ishlarni rag'batlantirish;

j) yig'ilish bayonnomalarini, yig'ilishda o'qilgan ma'ruzalarni jamiyatning faoliyatiga doir hisobotlarni va moliyaviy ahvoliga doir ma'lumotlarni nashr qilish;

z) Sharq mamlakatlari geografiyasi va xo'jaligiga oid ma'lumotlarni to'plovchi organga ega bo'lmog'i;

²⁰³ Назаров А. ЎзР МДАнинг Туркистондаги илмий жамиятлар ва ташкилотларга доир жамғармалари ҳақида // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2018. №1/1. – Б. 32-35.

i) kutubxona va o'quv xonalarini ochish;

y) zaruratga qarab hamda o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rus mahsulotlarini Sharq mamlakatlarida sotishni yengillashtirish uchun u yerlarning aholisi ehtiyoji va ta'bini, shuningdek, savdo-sanoati ahvolini o'rganish maqsadida ekspeditsiyalar uyushtirish²⁰⁴.

Hujjatlarda ko'rsatilishicha, jamiyat ishini uning kengashi boshqargan. Kengash huzurida 3 ta bo'lim bo'lib, ushbu bo'limlar jamiyat dasturidagi quyidagi ishlarni bajargan:

1) savdo-sanoat bo'limi. Uning vazifalari Sharq xalqlarini iqtisodiy va savdo-sanoat ahvolini tadqiq qilish va o'rganish, "Yevropa Sharq"idan "Uzoq Sharq"qacha bo'lgan hududda rus mahsulotlarini sotish choralari qidirish, shu bilan birga ombor, muzey va ko'rgazmalarni tashkillashtirish;

2) ilmiy-madaniy bo'lim. Ushbu bo'limning vazifasi Sharqni Rossiya bilan, Rossiyani Sharq bilan ilmiy va madaniy jihatdan tanishtirish;

3) maorif bo'limi. Ushbu bo'limning maqsadi Rossiyaga Sharq uchun arboblarni tayyorlashdan iborat bo'lgan (kelajakda Sharqshunoslik instituti) va u yerdagi mamlakatlarda rus tilini o'rgatuvchi tijoriy maktablarini tashkil etishdan iborat bo'lgan²⁰⁵.

Arxiv manbalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, jamiyatning raisi bo'lgan general-mayor Nikolay Konstantinovich Shvedov Toshkent bo'limini tashkil etish uchun dastlab, 1900-yil 18-oktabrda Turkiston general-gubernatori S.M. Duxovskoyga, uning vafotidan so'ng 1901-yil 12-martda N.A. Ivanovga murojaat qilgan. Natijada 1901-yil 14-aprel kuni Turkiston general-gubernatorining uyida Sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limini ochish masalasini ko'rib chiqish uchun o'lkaning ma'muriy va harbiy amaldorlari hamda ilm-fan namoyondalari yig'ilishi bo'lib o'tgan. Ushbu yig'ilishda 40 ga yaqin kishilar qatnashgan bo'lib, xususan ular orasida N.I. Korolkov (Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori), V.V. Saxarov (okrug shtabi boshlig'i), M.I. Brodovskiy (general-gubernator huzuridagi maxsus amaldor), P.I. Xomutov, N.P. Ostroumov (o'qituvchilar seminariyasi direktori), V.O. Oshanin (ayollar gimnaziyasi direktori), D.D. Gedeonov (topografiya bo'limi boshlig'i), A.K. Kedrov (Real bilim yurti direktori), V.O. Preobrajenskiy (erkaklar gimnaziyasi direktori), N.G. Mallitskiy (erkaklar gimnaziyasi o'qituvchisi) va boshqalar qatnashgan. Turli firmalar, banklar, savdo uylari, manufakturalar vakillari va boshliqlari ushbu yig'ilishda ishtirok etgan. Yig'ilishda o'lka amaldorlari, ilm-fan va savdo-sanoat vakillari Toshkent bo'limining ochilishini qo'llab-quvvatlashadi. Bo'limni ta'sis etish haqida o'lka general-gubernatori N.K. Shvedovga 1901-yil 25-apreldagi xat orqali xabar qilinadi. 1901-yil 29-maydagi javob xatida jamiyat raisi N.K. Shvedov Toshkent bo'limi ochilishi Moliya vazirligi tomonidan ma'qullanganligi va yuqorida aytib o'tilgan general-gubernatorning xatiga ilova qilingan taxmini

²⁰⁴ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 3-varaq.

²⁰⁵ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 3-orqa varaq.

a'zolar ro'yxatidagilar jamiyat a'zoliciga tasdiqlanganligi haqida xabar beriladi²⁰⁶.

Tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar avvalo o'lkada Rossiya imperiyasi davlatchiligini targ'ib etish va mustahkamlash vositasi sifatida vujudga kelgan.

Bunda ular avvalo mahalliy aholi o'rtasida rus tili va madaniyatini targ'ib qilish orqali imperiya uchun sodiq fuqarolar qatlamini vujudga keltirishni ko'zlashar edi. Qolaversa, rus hukumatining o'lkadagi ma'muriy boshqaruvi ham O'rta Osiyo haqida iloji boricha tezroq ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lishga qiziqardi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad uning yer osti va usti boyliklari joylashgan manzillar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish va u yerlarga harbiy harakatlarni boshlash bo'lgan.

Imperatorlik sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi hujjatlari O'zbekiston Milliy arxivi I-361 fondida saqlanadi. Fondida 1901-yil 14-mart bo'lim tuzilishidan to 1917-yilgacha ya'ni bo'lim o'z faoliyatini tugatgunga qadar bo'lgan ma'lumotlar mavjud. Bo'lim faoliyati asosan o'z a'zolari yig'ilishida turli ma'ruzalarni tashkillashtirish va olib borishdan iborat bo'lgan²⁰⁷. Fondida jamiyatning Nizomi, bo'limni tashkil etish masalasi bo'yicha Sharqshunoslik jamiyati va o'lka ma'muriyati bilan yozishmalar, bo'limning yig'ilish bayonnomalari, yillik hisobotlari va sharq tillarini o'rganishga doir ma'lumotlar bor.

Shuningdek bo'lim faoliyati hisoboti, til kurslari islom, vaqf, sharq tillari va boshqa masalalarga oid ilmiy izlanishlar haqida ma'lumotlar mavjud.

Arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, I-361 fondida 1901–1917-yillar, ya'ni jamiyat faoliyat yuritgan davrga doir hujjatlar mavjud. Jami 13 yig'majildan iborat. Ular bir ro'yxatga kiritilgan. Fondagi saqlov birliklari 1 dan 13 gacha tartib raqamlari bilan belgilangan.

Fondagi birinchi raqamli yig'majild Sharqshunoslik jamiyatini tashkil etish va sharqshunoslik masalalariga oid asarlarni nashr qilishga oid bo'lib, tarkibida Imperatorlik sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limining ochilishi haqidagi (ko'chirib olingan) hujjat, Yevgeniy Matseyvskiy, N.P. Ostroumov xatlari bor²⁰⁸.

Ikkinchi raqamli yig'majild N.K. Shvedovning Turkiston general-gubernatori S.M. Duxovskoyga xati, Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyatining tashkil etilishi va Toshkentda bo'lim ochilishi haqidagi hujjat, Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati nizomi, V.F. Oshanin tomonidan yozilgan ma'lumotnoma, Toshkent bo'limi ochilishi to'g'risida, Jamiyat nizomiga sharh, Toshkent bo'limi a'zolari ro'yxati, Turkiston general-gubernatorining N.K. Shvedovga xati, Jamiyat ochilishi haqida hisobot xati, Toshkent bo'limining dasturi, Nizom va a'zolar ro'yxati, xabarnoma, xatlar va yozishmalar mavjud²⁰⁹.

²⁰⁶ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 16-16-orqa varaq.

²⁰⁷ Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель / Сост. Агафонов З.И., Халфин Н.А. – Ташкент, 1948. – С. 144.

²⁰⁸ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 3-varaq.

²⁰⁹ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 1-36-varaqlar.

Fondagi uchinchi raqamli yig'majild rus-tuzem maktablarida rus tili kurslarini tashkil etilishi haqida deb nomlanib, tarkibida xatlar, kvitansiyalar, yig'ilish bayonnomalari, o'qituvchilarning dars o'tganliklari uchun pul olganliklari to'g'risida tilxatlar, rus-tuzem maktablari haqida ma'lumotnoma, kechki rus tili kurslari haqida ma'lumotnoma, Turkiston general-gubernatorligi haqidagi maqolalar to'plami, N.K. Shvedovning Toshkentda tillarni o'rganuvchi oliy o'quv yurti ochish haqidagi xati, Toshkentda ochilishi rejalashtirilgan sharq tillari instituti loyihasi nizomini ishlab chiqish bo'yicha tuzilgan komissiya yig'ilishi bayonnomasi, rus-tuzem maktablarining ochilishi haqidagi hujjatlar, hisobot va yozishmalar bor²¹⁰.

To'rtinchi raqamli yig'majildda xabarnoma (1904-yil 5-oktabr kuni jamiyatning yig'ilishi haqida), Jamiyatning 1904-yil 27-noyabrdagi yig'ilish bayonnomasi, Yagelloning "Вечерние курсы для взрослых туземного" maqolasi va boshqa xatlar bor²¹¹.

Fondagi beshinchi raqamli yig'majildda Turkiston xarbiy topografiya bo'limi boshlig'ining Y.O. Matsevskiyga kartalar haqidagi xati, Toshkent shahridagi erkaklar va ayollar o'quv yurtlari ma'lumotlari, Turkiston general-gubernatori devonxonasidan Yagelloga moliyaviy masaladagi xat, maktab madrasalar to'g'risida ma'lumotnoma va boshqa xatlar bor²¹².

Fondagi oltinchi raqamli yig'majildda Til kurslari haqida ma'lumotlar, qoralama asl nusxadagi bayonnomalar mavjud.

Yettinchi raqamli yig'majildda N.P. Ostroumovning K.K. Ivanovga Rossiya uchun musulmon masalalarining ahamiyati haqidagi ma'ruzasi saqlanadi.

Fondagi sakkizinchi raqamli yig'majildda vaqfga oid adabiyotlar haqida, nashriyotdan xat, moliyaviy masala, bayonnoma nusxasi kabi ma'lumotlar bor.

To'qqizinchi raqamli yig'majildda kechki kurslar haqida ma'lumotlar, islomshunoslik bo'yicha Toshkent harbiy yig'inida o'qilgan ma'ruzalar ro'yxati va ma'lumotlar, kitoblar almashinuvi to'g'risida ma'lumot, xabarnomalar va yozishmalar bor²¹³.

Fondagi o'ninchi raqamli yig'majildda Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati N.P. Ostroumovdan O'rta Osiyoda islom dini bo'yicha Turkiston general-gubernatorligida nashr qilingan materiallardan nusxalar jo'natishini so'ragan xat, Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati N.P. Ostroumovga kitoblar yuborganligi uchun minnatdorchilik xati, qoralama ariza va xatlar mavjud²¹⁴.

Fondagi o'n birinchi raqamli yig'majildda "Мир ислама" jurnalini tashkil etish va uning tuzilishi haqidagi hujjat, N.P. Ostroumovga "Мир ислама" jurnaliga chiqqan maqolalar uchun qalam haqi (75 rubl) to'lovi haqidagi hujjat, hamda N.P. Ostroumovning javob xatlari mavjud²¹⁵.

O'n ikkinchi raqamli yig'majildda N.P. Ostroumovning N.K. Shvedovga

²¹⁰ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 3-yig'majild, 59-286-varaqlar.

²¹¹ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'majild, 1-4-varaqlar.

²¹² O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild, 5-87-varaqlar.

²¹³ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 18, 29-35-varaqlar.

²¹⁴ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 10-yig'majild, 1-2-varaqlar.

²¹⁵ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 11-yig'majild, 1-5-varaqlar.

xati, hamda jurnalning birinchi 9 ta sonini Toshkentga yuborilishi²¹⁶ oid hujjatlar bor.

O'n uchinchi raqamli yig'majildda esa Yevrosiyo xalqlarining kelib chiqishiga oid oriy nazariyasi haqida ma'lumotlar mavjud²¹⁷.

Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi faoliyati va tarixini tadqiq etish O'rta Osiyoda sharqshunoslik sohasi tarixini o'rganish uchun asos bo'ladi.

Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi tarixini tadqiq etilishiga to'xtalar ekan, tarixshunos B.V. Lunin: "Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi taqdiri ham turkistonshunoslik bilan shug'ullangan boshqa jamiyatlarga o'xshash bo'lgan u umuman unutilgan bo'lib, jamiyat haqidagi adabiyotlar faqatgina ma'lumotlar bilan chegaralangan"²¹⁸, deb ta'kidlaydi.

Imperatorlik sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi (I-361) fondining 7, 9 va 10-yig'majildlarida o'lkadagi imperiya manfaatlari uchun xizmat qilgan til kurslari faoliyati hamda jamiyat tomonidan bajarilgan ishlar natijalari aks etgan ma'lumotlar mavjud. Xususan, ushbu fondning 7-yig'majildida N.P. Ostroumovning Rossiya uchun o'lkadagi musulmon aholining madrasa ta'limi, sharq tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi keltirilgan. Aynan, shu fondning 9-yig'majildida islomshunoslik bo'yicha Toshkent harbiy yig'inida o'qilgan ma'ruzalar saqlanib qolgan²¹⁹.

Sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi ilmiy ishlarni o'rganish va chop etishdan tashqari, vaqti-vaqti bilan sharq tillarini o'rganish bo'yicha o'qishlar tashkil etish, sharqshunoslik bo'yicha ma'ruzalar qilish, ko'rgazmalar tashkil etish vazifalarini bajargan. Jamiyatning a'zolari N.P. Ostroumov, G.M. Gramenitskiy, N.G. Mallitskiy, I.I. Krauze, I.D. Yagello, M.I. Brodovskiylar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. 1902–1904-yillarda N.P. Ostroumov raisligida maxsus hay'at madrasalarda rus tilini joriy etish to'g'risidagi masalalar muhokama qilingan²²⁰. Jamiyat tashabbusi bilan 2 sinflik rus-tuzem bilim yurti ochilgan²²¹.

Barcha turdagi faoliyat kursatayotgan jamiyat a'zolari tadqiqot olib borish bilan birga o'lkadan to'plangan noyob sharq qo'lyozmalari va moddiy boyliklarni Rossiyaga jo'natishda asosiy yordamchi bo'lib xizmat qilishgan.

I-361-fond 1-ro'yxat 5-yig'majildda aholi yashaydigan xonadonlar va sharoitlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hujjatdagi ma'lumotlarga ko'ra, mahalliy binolarning yevropaliklar tomonidan sanitar-gigiyena talablariga javob bermasligi aytib o'tilgan. Mahalliy binolar kamdan-kam derazaga ega, eshik yoki darchalar orqali yoritilgan. Hatto kichkina xonalarda ham 2 yoki 3 tadan tashqi havoning oqimini ta'minlaydigan darchalar qo'yilgani toza havoni saqlash uchun qulay bo'lgan, ammo boshqa tomondan ba'zi noqulayliklar

²¹⁶ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'majild, 2-varaq.

²¹⁷ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 13-yig'majild, 1-4-varaqlar.

²¹⁸ Лунин Б.В. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. Конец XIX–начало XX в. – Ташкент, 1962. – С. 126.

²¹⁹ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 30-34-varaqlar.

²²⁰ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 10-yig'majild, 7-varaq.

²²¹ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 10-yig'majild, 8-varaq.

tug'dirgan. Qishda va kech kuzda tashqi havoning keskin pasayishi bilan eshik va darchalar qog'ozlar yordamida yopilgani ham qoniqarsiz deb topilgan, chunki qog'oz tashqi tomondan sovuqdan juda oz himoya qiladi, boshqa tomondan yorug'likni kam o'tkazadi. Mahalliy aholi uylarini isitish uchun sandaldan foydalanishgan²²². Shuningdek ushbu yig'majildda Turkiston harbiy okrugi Harbiy-topografiya bo'limi faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud. Xususan, ikkita umumiy xaritani nashr ettirgani to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lib, ulardan biri – 40 verst, butun qo'shni lagerlar bilan tumanni qamrab oladi, ikkinchisi esa –10 verst deyarli okrugning aholisi joylashgan uchta hududni, shuningdek, Buxoroni Afg'oniston chegaralarigacha qamrab oladi. Xaritalarda belgilangan aholi punktlari, ushbu masshtabdagi xaritalarning o'qilishi va ko'rinishi talablariga javob bergan²²³.

Barcha kichik aholi punktlarini xaritalash uchun 2 verstdan kichik bo'lmagan (zich joylashgan vohalar uchun 0,5 dan kichik bo'lmagan) o'lchov tanlangan. Tumanning uchta tub joy mahalliy aholisi uchun ikki verstli xarita taxminan 600 ta varaqdan iborat bo'lishi va taxminan 25 kvadrat metr maydonni egallashi kerak edi. Bunday xaritani nashr etish uchun Bo'limning moliyaviy imkoniyati bo'lmagan.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi Turkiston va qo'shni mamlakatlarning yangi batafsil xaritalarini tuzishgan. Ayniqsa, tumanning mavjud xaritalaridan foydalanish, ularning ba'zi joylarini ma'lumotlar bilan to'ldirish yoki nihoyat jamiyat uchun juda muhim bo'lgan joylarning instrumental suratga olish orqali fotografik nusxalarini yaratish asosiy maqsad bo'lgan. Shu tarzda jamiyatga kartografik ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, ular jamiyatga aynan nima va qanday maqsadlar uchun kerakligi to'g'risida vakolat berilib, harbiy gubernatorlardan ilmiy maqsadlarda istalgan hududlarning joylashuvi va geografik joylarni aniqlash uchun ma'lumotni olishgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, Turkistonda ilm-fan rivojiga e'tibor ko'rsatilmagan. Faqatgina mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash uchun kerak bo'lgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Turkiston o'lkasini o'rganish orqali Rossiya hukumatiga kerakli ma'lumotlar yetkazib turilgan. Imperiya tub aholini taraqqiyot va madaniyatdan chetda ushlab turib, o'lkadagi hukmronligini saqlash uchun jamiyatlardan qurol sifatida foydalangan.

Rezume

Ushbu maqolada Imperatorlik sharqshunoslik jamiyati Nizomida belgilangan vazifalari, Toshkent bo'limining tashkil etilishi bilan bog'liq hujjatlar tahlil qilingan bo'lib, bo'lim faoliyati aks etgan ayrim yozishmalar o'rganilgan. Shuningdek, Imperatorlik sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi hujjatlari aks etgan O'zbekiston Milliy arxividagi I-361 fondagi

²²² O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild, 20-orqa varaq.

²²³ O'zMA I-361-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild, 5-6-varaqlar.

yigʻmajildlar arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: *Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati, Oʻzbekiston Milliy arxivi, I-361 fond, yigʻmajild, hujjat, xarita, kechki kurslar, xat, nizom, bayonnom.*

В данной статье анализируются задачи, определенные в Уставе Императорского общества востоковедения, документы, связанные с созданием Ташкентского отделения, а также изучается некоторая переписка, отражающая деятельность отделения. Также с точки зрения архивного источниковедения проанализированы дела фонда И-361 Национального архива Узбекистана, содержащие документы Ташкентского отделения Императорского общества востоковедения.

Ключевые слова: *Императорское общество востоковедения, Национальный архив Узбекистана, фонд И-361, дело, документ, карта, вечерние курсы, письмо, положение, протокол.*

This article analyzes the tasks defined in the Charter of the Imperial Society of Oriental Studies, documents related to the establishment of its Tashkent branch, as well as selected correspondence reflecting the activities of the branch. In addition, from the perspective of archival source studies, the files of Fund I-361 of the National Archives of Uzbekistan containing documents of the Tashkent branch of the Imperial Society of Oriental Studies are examined.

Keywords: *Imperial Society of Oriental Studies, National Archives of Uzbekistan, Fund I-361, file, document, map, evening courses, letter, regulations, protocol.*

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Лунин Б.В. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. Конец XIX–начало XX в. – Ташкент, 1962.
2. Назаров А. ЎЗР МДАнинг Туркистондаги илмий жамиятлар ва ташилотларга доир жамғармалари ҳақида // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2018. №1/1.
3. Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель / Сост. Агафонова З.И., Халфин Н.А. – Ташкент, 1948.
4. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 1-yigʻmajild.
5. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 2-yigʻmajild.
6. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 3-yigʻmajild.
7. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 4-yigʻmajild.
8. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 5-yigʻmajild.
9. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 9-yigʻmajild.
10. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 10-yigʻmajild.
11. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 11-yigʻmajild.
12. OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 12-yigʻmajild.
- OʻzMA I-361-fond, 1-roʻyxat, 13-yigʻmajild.

СЕРГЕЙ НИКОЛАЕВИЧ БОБЫЛЕВ**НАУЧНЫЕ ОСНОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ
КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ: МОНОГРАФИЯ АКАДЕМИКА
С.С. ГУЛЯМОВА В КОНТЕКСТЕ СТРАТЕГИИ НОВОГО
УЗБЕКИСТАНА**

Современный этап социально-экономического развития характеризуется переходом от индустриально ориентированных моделей роста к моделям, основанным на знаниях, инновациях и нематериальных активах. В этой связи креативная экономика всё чаще рассматривается в научной литературе не как периферийное явление, а как структурный компонент цифровой экономики, обеспечивающий воспроизводство человеческого капитала, генерацию инноваций и формирование устойчивых источников добавленной стоимости.

Мировая практика демонстрирует, что креативные индустрии – дизайн, архитектура, цифровые медиа, программное обеспечение, культурные и художественные практики – становятся значимым фактором экономического роста. Их вклад в валовой внутренний продукт развитых и развивающихся стран демонстрирует устойчивую положительную динамику, а занятость в креативном секторе растёт опережающими темпами по сравнению с традиционными отраслями. В этом контексте особую актуальность приобретает научное осмысление процессов институционализации и цифровой трансформации креативной экономики на национальном уровне.

В Республике Узбекистан формирование креативной экономики осуществляется в рамках масштабных социально-экономических преобразований, реализуемых в логике концепции «Новый Узбекистан». В отличие от фрагментарных подходов, характерных для ранних этапов реформирования, современная стратегия предполагает системное включение креативных индустрий в структуру национальной экономики.

Принятие в 2024 году Закона Республики Узбекистан «О креативной экономике» стало важным шагом в институциональном оформлении данной сферы. Закон закрепил понятийный аппарат, определил круг субъектов креативной экономики, а также обозначил направления государственной поддержки, включая налоговые стимулы, развитие инфраструктуры и формирование специализированных экосистем. Существенно, что данный нормативный акт разрабатывался с учётом международного опыта и рекомендаций профильных организаций системы ООН.

Важным элементом институционального контекста стало также проведение в Ташкенте IV Всемирной конференции по креативной экономике, что свидетельствует о включенности Узбекистана в глобальную дискуссию о будущем креативного развития.

На фоне обозначенных процессов особую значимость приобретает выход фундаментальной монографии «Цифровая трансформация креативной экономики Нового Узбекистана», автором которой является академик Академии наук Республики Узбекистан, доктор экономических наук, профессор С.С. Гулямов.

Работа объёмом 664 страницы представляет собой первое в отечественной науке комплексное междисциплинарное исследование, в котором креативная экономика анализируется через призму цифровой трансформации, институциональных изменений и структурной модернизации. Структура монографии логически выстроена и включает десять тематических глав, последовательно раскрывающих эволюцию концепции креативной экономики, её теоретические основания, институциональные механизмы и практические инструменты развития.

Особого внимания заслуживает методологический аппарат исследования. Автор опирается на системный и институциональный подходы, элементы экономической кибернетики, а также методы сравнительного и структурного анализа. Такой методологический синтез позволяет рассматривать креативную экономику не изолированно, а как элемент более широкой социально-экономической системы.

Центральное место в монографии занимает анализ цифровой трансформации креативных индустрий. Академик С.С. Гулямов обосновывает тезис о том, что цифровые технологии – платформы, большие данные, искусственный интеллект – выступают не внешним фактором, а внутренним механизмом развития креативной экономики.

В работе предложены авторские модели устойчивого развития креативных индустрий, включая концепцию экосистемного подхода и пирамиду устойчивости креативного сектора. Эти модели позволяют оценивать не только экономическую эффективность, но и социальные, культурные и институциональные эффекты цифровизации. Важным вкладом является разработка оригинальных критериев оценки эффективности труда в условиях платформенной экономики и цифровой занятости.

Отдельный раздел посвящён анализу международного опыта цифровой трансформации креативных индустрий, что позволяет соотнести национальную модель Узбекистана с глобальными тенденциями и выявить её конкурентные преимущества.

Одним из наиболее дискуссионных и актуальных аспектов монографии является анализ трансформации рынка труда в условиях цифровизации и широкого внедрения искусственного интеллекта. Автор исходит из положения о том, что автоматизация и алгоритмизация неизбежно приводят к вытеснению части традиционных профессий, однако одновременно создают предпосылки для формирования новых форм занятости.

В этом контексте креативная экономика рассматривается как компенсаторный механизм, способный смягчить социальные последствия тех-

нологических изменений. Академик Гулямов уделяет особое внимание развитию творческого фриланса, проектной занятости и формированию гибких моделей профессиональной самореализации. Предлагаемые в монографии механизмы переквалификации и развития креативных компетенций представляют значительный интерес как для исследователей, так и для практиков государственной политики.

Существенным достоинством монографии является её органичная встроенность в контекст стратегических документов развития Узбекистана, включая стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030». Автор убедительно показывает, что развитие креативной экономики требует не точечных мер поддержки, а целостной государственной политики, основанной на межведомственном взаимодействии, государственно-частном партнёрстве и интеграции науки, образования и бизнеса.

Рекомендации, содержащиеся в монографии, могут быть использованы при формировании программ поддержки креативных индустрий, создании парков креативных индустрий, а также при разработке образовательных программ в системе высшего образования.

Монография С.С. Гулямова выходит за рамки узкоспециализированного исследования и представляет интерес для широкого круга специалистов — экономистов, управленцев, социологов, культурологов, а также для представителей органов государственной власти и предпринимательского сообщества. Работа отличается высоким уровнем научной аргументации, методологической строгостью и практической ориентированностью.

Выход данного труда следует рассматривать как значимое событие в развитии экономической науки Узбекистана. Монография формирует научный фундамент для дальнейших исследований в области креативной и цифровой экономики и может служить методологической основой для разработки стратегий специально-экономического развития.

Монография «Цифровая трансформация креативной экономики Нового Узбекистана» представляет собой зрелый, концептуально выстроенный и методологически обоснованный научный труд. Академик С.С. Гулямов демонстрирует способность соединить глубокий теоретический анализ с практическими задачами государственной политики, что соответствует лучшим традициям академической экономической школы.

Работа вносит существенный вклад в формирование научных основ креативного развития и подтверждает, что отечественная экономическая наука способна не только адаптировать международные концепции, но и вырабатывать собственные модели развития в условиях глобальной цифровой трансформации.

МУНДАРИЖА

Долзарб мавзу

Абдуҳалимов Б. Ислом цивилизацияси маркази – Ўзбекистон таракқиётида янги интеллектуал платформа.....	3
---	---

Давлат ва ҳуқуқ

Баратов М., Акрамходжаев Б. Туристик бозорнинг таърифи ва илмий оммабоп туризм.....	11
---	----

Тарих, исломшунослик ва манбашунослик

Алимова Д. Тошкент жадидчилик ҳаракатининг муҳим маркази сифатида: маърифий ташаббуслар ва маҳаллий тадбиркорлар билан алоқалар	25
Каримова Н. Япон таълим тизимининг эволюцияси	37
Раҳмонқулова М. Ўзбекистондаги ислом цивилизацияси маркази экспозициясида Бойсунғур Мирзо сарой кутубхонасига оид тарихий хужжат намойиши.....	45
Лутфиллаев Ҳ. Қутбидинова М. Куръони Карим илмларига доир Темурийлар даврида яратилган бир манба хусусида	52
Буриева Х. Тошкент шаҳри ижтимоий объектларининг топонимик хусусиятлари (1991–2007 йиллар)	60
Раҳмонқулова З. ХХІ аср Туркия тарихшунослигида ўзбек теккалари масалаларининг ўрганилиши	71
Акрамова Ш. «Очиқ эшиклар» сиёсатининг Хитой Халқ Республикасида илмий-техник зиёлилар қатламининг шаклланишига таъсири	78
Чориев Ш. Ўзбекистон миллий архив хужжатлари Совет ҳокимиятининг коллективлаштириш сиёсати тарихига оид манба сифатида.....	85
Назаров А. Императорлик Шарқшунослик жамияти Тошкент бўлимининг ташкил этилиши тарихи	95

Тақриз

Бобилев С. Креатив иктисодиёт рақамли трансформациясининг илмий асослари: академик С.С. Ғулямов монографияси Янги Ўзбекистон стратегияси контекстида	103
--	-----

СОДЕРЖАНИЕ

Актуальная тема

Абдухалимов Б. Центр исламской цивилизации как новая интеллектуальная платформа в развитии Узбекистана	3
---	---

Государство и право

Баратов М., Акрамходжаев Б. Определение туристического рынка и научно-популярный туризм	11
--	----

История, исламоведение и источниковедение

Алимова Д. Ташкент как центр джадидского движения: просветительские инициативы и взаимодействие с предпринимательской средой	25
Каримова Н. Эволюция японской системы образования	37
Рахманкулова М. Исторический документ о дворцовой библиотеке Байсунгура Мирзо в экспозиции Центра исламской цивилизации Узбекистана	45
Лутфиллаев Х., Кутбидинова М. К вопросу об одном источнике эпохи Тимуридов по кораническим наукам	52
Буриева Х. Топонимические особенности социальных объектов города Ташкента (1991 – 2007 гг.)	60
Рахмонкулова З. Изучение вопросов узбекских текке в турецкой историографии XXI века	71
Акрамова Ш. Влияние политики «открытых дверей» на формирование научно-технической интеллигенции в КНР	78
Чориев Ш. Национальные архивные документы Узбекистана как источник по истории политики коллективизации советской власти	85
Назаров А. История создания Ташкентского отделения Императорского общества востоковедения.....	95

Рецензия

Бобылев С. Научные основания цифровой трансформации креативной экономики: монография академика С.С. Гулямова в контексте стратегии нового Узбекистана.....	103
---	-----

CONTENTS

Topical Issue

Abdukhalimov B. The Center of Islamic Civilization as a New Intellectual Platform in the Development of Uzbekistan.....	3
--	---

State and Law

Baratov M., Akramkhodjaev B. Definition of the tourism market and popular science tourism.....	11
---	----

History, Islamic Studies, and Source Studies

Alimova D. Tashkent as a Center of the Jadid Movement: Educational Initiatives and Interaction with the Entrepreneurial Environment.....	25
Karimova N. Evolution of the Japanese education system	37
Rakhmankulova M. A Historical Document on the Palace Library of Baysunghur Mirza Presented in the Exhibition of the Islamic Civilization Center in Uzbekistan.....	45
Lutfillaev H., Qutbidinova M. On a Timurid-Era Source Devoted to the Qur'ānic Sciences	52
Burieva Kh. Toponymic Features of Social Objects in Tashkent (1991–2007)	60
Rahmonqulova Z. The Study of Issues Related to Uzbek Tekkes in 21st-Century Turkish Historiography	71
Akramova Sh. The Impact of the “Open Door” Policy on the Formation of the Scientific and Technical Intelligentsia in the People’s Republic of China	78
Choriev Sh. National Archival Documents of Uzbekistan as a Source for the History of the Soviet Collectivization Policy	85
Nazarov A. The History of the Establishment of the Tashkent Branch of the Imperial Society of Oriental Studies	95

Book review

Bobylev S. Scientific Foundations of the Digital Transformation of the Creative Economy: The Monograph of Academician S. S. Gulyamov in the Context of the New Uzbekistan Strategy.....	103
--	-----

МУАЛЛИФЛАР ҲАҚИДА

Б.А. Абдуҳалимов – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси вице-президенти, тарих фанлари доктори, профессор

М.Х. Баратов – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Давлат ва ҳуқуқ институти бўлим бошлиғи, юридик фанлар доктори, профессор.

Б.Т. Акрамходжаев – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Давлат ва ҳуқуқ институти катта илмий ходими, юридик фанлар номзоди, доцент.

Д.А.Алимова – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Антропология институти бош илмий ходими, тарих фанлари доктори, профессор.

Каримова Н – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти етакчи илмий ходими, тарих фанлари доктори, профессор.

М.Б. Раҳманкулова – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази етакчи илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),

Ҳ.М. Лутфиллаев – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими, тарих фанлари номзоди.

М.Э. Қутбидинова – Ўзбекистон халқаро ислом академияси мустақил изланувчиси.

Х.А. Буриева – ЎЗР ФА Ўзбекистоннинг энг янги тарихи масалалари бўйича Мувофиқлаштирувчи-методик марказ катта илмий ходими, тарих фанлари доктори, доцент.

З.Б. Раҳмонкулова – Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Тарих факультети «Архившунослик ва манбашунослик» кафедраси мудири, тарих фанлари номзоди, профессор.

Ш.М. Акрамова – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти кичик илмий ходими.

Ш.Ш. Чориев – Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Тарих факультети «Архившунослик ва манбашунослик» кафедраси профессор в.б., тарих фанлари номзоди.

А.Ё. Назаров – Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Архившунослик ва манбашунослик кафедраси доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

С.Н. Бобылев –М.В. Ломоносов номидаги Москва давлат университети ҳузуридаги биоиктисодиёт ва экинновациялар маркази раҳбари, Россия Федерациясида хизмат кўрсатган фан арбоби, Россия табиий фанлар академияси ва Россия иқтисодий академияси академиги, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти эксперти, иқтисод фанлари доктори, профессор.

“Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” журнаliga мақолаларни қабул қилиш қоидалари

Мақола ҳажми – 8-12 бет, тақриз мақола – 3 бетдан кам бўлмаслиги лозим.

мақола матни Дос форматида, лотин ёзувида, 1,5 интервалда, ўнг томондан — 15 мм, чап томондан — 30 мм, юқори ва пастдан — 20 мм ҳошия қолдирилиб, Times New Roman

- 14 кегл шрифтида тайёрланади;
- мақола номи 12 сўздан ортмаслиги ва мақола шакллантирилган тил ҳамда рус ва инглиз тилига таржима қилинган ҳолатда берилиши лозим;
- мақола аннотацияси мақола матнидан кейин, ўзбек, рус ва инглиз тилларида келтирилади (100 сўздан кам бўлмаслиги лозим);
- аннотациядан сўнг камида 5-7 та калит сўз берилиши зарур (ўзбек, рус ва инглиз тилларида).

Муаллиф ҳақида маълумотлар: Мақола номидан 1 интервал пастда, ўнг томонда муаллифнинг фамилияси, исми ва отасининг исми қорайтирилган ҳарфлар билан, кейинги қаторларда муаллифнинг илмий даражаси, унвони, ташкилот номи ва электрон манзили қия ҳарфлар (курсив)да кўрсатилиши лозим.

Ҳавола ва фойдаланилган адабиётларнинг берилиш тартиби: Манба ҳаволаси ҳар бир бетнинг матн остида, манба муаллифи фамилияси ва инициали, нашр йили ва саҳифаси кўрсатилган тартибда берилади.

фойдаланилган адабиётлар рўйхати юқорида қайд этилган тартибда матннинг сўнгида берилади.

“O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnaliga maqolalarni qabul qilish qoidalari

Maqola hajmi – 8-12 bet, taqriz maqola – 3 betdan kam bo‘lmasligi lozim.

– maqola matni Doc formatida, lotin yozuvida, 1,5 intervalda, o‘ng tomondan - 15 mm, chap tomondan - 30 mm, yuqori va pastdan - 20 mm hoshiya qoldirilib, Times New Roman 14 kegl shriftida tayyorlanadi;

– maqola nomi 12 so‘zdan ortmasligi va maqola shakllantirilgan til hamda rus va ingliz tiliga tarjima qilingan holatda berilishi lozim;

– maqola annotatsiyasi maqola matnidan keyin, o‘zbek, rus va ingliz tillarida keltiriladi (100 so‘zdan kam bo‘lmasligi lozim);

– annotatsiyadan so‘ng kamida 5-7 ta kalit so‘z berilishi zarur (o‘zbek, rus va ingliz tillarida).

Muallif haqida ma’lumotlar: Maqola nomidan 1 interval pastda, o‘ng tomonda muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi qoraytirilgan harflar bilan, keyingi qatorlarda muallifning ilmiy darajasi, unvoni, tashkilot nomi va elektron manzili qiya harflar (kursiv)da ko‘rsatilishi lozim.

Havola va foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi: Manba havolasi har bir betning matn ostida, manba muallifi familiyasi va initsiali, nashr yili va sahifasi ko‘rsatilgan tartibda beriladi.

– foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati yuqorida qayd etilgan tartibda matnning so‘ngida beriladi.

ДИҚҚАТ! ДИҚҚАТ! ДИҚҚАТ!

Журналда докторлик диссертацияларининг асосий илмий натижаларига оид илмий мақолалар эълон қилиш учун ТАЛАБЛАР

1. Чоп этиладиган материалларни тақриздан ўтказишнинг мажбурийлиги (зарур ҳолларда Ўзбекистон Республикаси ОАК сўрови асосида тегишли тақризни тақдим этишнинг мажбурийлиги).

2. Чоп этиладиган илмий мақола қуйидаги талабларга жавоб бериши шарт:

– *ўзбек, инглиз ва рус тилларида қисқача резюменинг мавжуд бўлиши;*

– *фойдаланилган асосий адабиётларнинг аниқ келтирилиши ва мақоланинг камида 0,25 б.т. ҳажмида бўлиши;*

– *муаммонинг қўйилиши; материалнинг назарий методологик ва услубий жиҳатдан пухталиги; манбаларнинг ишончлилиги; хулоса, таклиф ва тавсияларнинг асослилиги назарда тутилади.*

Лицензия издательства №1385, 21.01.2025 у.

Изд. №:09-26. Сдано в набор 13.05.2026. Подписано в печать 20.05.2026.
Формат 70x108 $\frac{1}{16}$. Гарнитура "Times New Roman". Печать офсетная. Бумага
офсетная. Усл.-печ. л. 7. Уч. – изд. л. 7. Тираж 45.
Цена договорная.

Отпечатано в типографском отделе Издательства "Фан" АН РУз.
Заказ №09-26. 100047, Ташкент, ул. М.Улугбека, 81.